

جدید

2025-yil 18-iyul
№ 29 (81)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishdada birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

SUHBAT

Akademik Abdulla A'ZAMOV:

"ILMGA ASOSLANIB ISHGA KIRISHMOQ KERAK"

– Bu suhbat aynan “Jadid” gazetasi muxlislarining iltimosiga ko'ra tashkil etilmoqda. Bunga ikki oy muqaddam gazetaning solnoma kitobi taqdimotida tabiiy va aniq fanlar, IT texnologiyalari va sun'iy intellekt rivoji haqida so'zlaganingiz, millat oydinlarini, yoshlarni bu ilmlarni egallashga undaganingiz ko'pchilikda qiziqish uyg'otgani turtki berdi.

– Ha, shunday bo'lgan edi. Aslida men o'shanda “Hazrat Navoiy – zamondoshimiz” mavzusida chorak soatlik chiqish tayyorlagan edim. Biroq... zamonning shiddati shu qadar jadalki, bir soat ichidayoq olamda axborot makonini ag'dar-to'ntar qiladigan voqealar yuz bermoqda. Tadbir arafasining tunida, keksalarga xos uyqusizlik sabab internetni titkilagan edim, Florida shtatidagi Vest-Poynt bazasida Ilon Maskning Amerika harbiy akademiyasi rektori bilan bo'lgan suhbatiga duch keldim. Suhbatda akademiya ustozlari-yu tinglovchilar hozir edi. Unda bugungi dunyoning eng nomdor texnologiyasi eng qudratli harbiy salohiyat namoyandalariga kelajak urushlari qanday bo'lishi haqida o'zining bashoratlarini so'zlar, harbiylarni shunga tayyor bo'lishga da'vat etar edi. Suhbat tafakkurimni bezovta qildi, chuqur o'yga toldirdi. Axir, o'zingiz mavzuga e'tibor bering: “Kelajak urushlari qanday bo'lishi kerak?” Yo



alharaz, nahotki AQSh hukumatida ta'sirli lavozimga tayinlangan buyuk ixtirochi va novator-tadbirkor o'zining nodir iste'dodini dunyoda tinchlik, xalqlar o'rtasida ahillikni ustuvor qilish o'rni, kelajak urushlari qanday bo'lishiga yo'naltirsa? Biroz alam ham qildi – so'nggi to'rt yil davomida universitetlar uchun “Differensial tenglamalar” kursi bo'yicha darslik yozib, unga Ilon Maskning “Motivatsiya bilan, nima uchun kerakligini tushuntirib

dars o'tish kerak” degan so'zlarini epigraf qilib olgan edim-da.

Harbiy akademiya rektori bilan bo'lgan suhbatda Ilon Mask bildirgan fikrlarning mag'zi shunday edi: bundan keyingi harbiy mojarolarda asosiy “jangchi” sun'iy intellektga asoslangan qurollar bo'ladi. Ularning imkoniyati qudratda ham, aniqlikda ham insonga, ya'ni harbiylarga nisbatan beqiyos darajada yuksak va tezkorki, urushlarning borishi mutlaq o'zgaradi.

Darvoqe, biz hozirning o'zidayoq bunga guvoh bo'la boshladik.

Chamasi, ko'z uyquga ilingan bo'lsa ham, tuni bilan bu mavzu ong ostini band qilgan bo'lsa kerak, yuqoridagi kitob taqdimotida ruhiy holat hamda majlis raisining “Matematiklarga xos bo'lsin” degan pisandasi bois, tungi o'y-tashvishlarimni imkon qadar lo'nda ifoda etishga to'g'ri keldi.

(Davomi 2-3-sahifalarda.) ➔

MILLAT FIDOYILARI

AYBIN BILMAY KETGAN

FUZAYL SHERAHMEDOV

O'tgan asrning 20-yillarida Germaniyada tahsil olgan turkistonlik talabalar mavzusi keyingi vaqtda keng yoritilgan. Bu izlanishlarni qo'llab-quvvatlagan holda, ushbu mavzudagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar zahmatkash olim Sherahmedovning “Ular Germaniyada o'qigan edilar” kitobi (1992-yili)da, marhum ustozlarimiz – Begali Qosimov, Naim Karimov, Boybo'ta Do'stqorayevning maqolalarida o'z ifodasini topganini adolat yuzasidan ta'kidlash lozim. Shuningdek, 1998-yili “O'zbekkino” milliy agentligi tomonidan mazkur kitob asosida ikki qismdan iborat hujjatli film (ssenariy muallifi – Xayriddin Sulton, rejissyor – Shuhrat Mahmudov) ham yaratilgan edi.



E'tiboringizga havola etilayotgan maqolada ana shunday iste'dodli talabalardan biri haqida hikoya qilinadi.

Fuzayl Sherahmedov 1908-yil 3-mayda Toshkent shahridagi 2-Qoryog'di mahallasida, yirik savdogar boylardan biri sanalgan Isroil Sherahmedov xonadonida dunyoga kelgan. Onasi Ruxsoraxon zamonasining bilimdon ayollaridan bo'lib, taniqli muallim Ikromxon domlaning qizi edi. Fuzayl avval jadid maktabida, so'ng Munavvar qori Abdurashidxonovning “Namuna” maktabida tahsil oldi.

Hujjatlarga ko'ra, “Namuna”da bir necha yuz bola o'qigan. Bu maktabda

o'z davrining eng iste'dodli yoshlari dars berishgan. Ularning qo'lida ta'lim olgan o'quvchilar orasidan keyinchalik Hamza, Qayum Ramazon, Oybek, Mannon Uyg'ur kabi iste'dodli adib va san'atkorlar yetishib chiqqan.

1922-yili yuzlab turkistonlik iqtidorli talabalar “Ko'mak” jamiyati orqali Berlin, Moskva, Peterburg, Boku, Ganja shaharlariga yo'l oladi. Ular asosan, Fitrat va Fayzulla Xo'jayev ajratgan Buxoro Xalq Respublikasi sarmoyasi, “Ko'mak” tashkiloti tomonidan yig'ilgan pullar va ayrimlari o'z ota-onalari hisobidan yo'lga chiqadi.

(Davomi 7-sahifada.) ➔

KELAJAK OVOZI

BOLALAR KONTENTINI YARATISH – DAVR TALABI

Yosh ijodkor Qobiljon SHERMATOV bilan suhbat

– Qobiljon, avvalo, “Mard o'g'lon” davlat mukofoti muborak bo'lsin! Taqdirlash marosimida Prezidentimiz “Yosh avlodni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularga axborot makonida foydali, mazmunli ma'lumotlarni yetkazish va targ'ib qilish doim e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur”, degan fikrni ta'kidlab o'tdi. Shu maqsadda Bolalar

kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilingani qayd etildi. Milliy kontent yaratishda esa bolalar adabiyoti vakillarining alohida o'rni bor. Shu ma'noda, bolalarga yozish uchun ijod-korda qanday sifatlar bo'lishi kerak? Yoki iste'dodning o'zi yetarliymi?

(Davomi 3-sahifada.) ➔



20-IYUL – KOMILJON OTANIYOZOV TUG'ILGAN KUN

TANDIRDA TOBLANGAN TOR

Yakkaxon ijroda torning o'rni beqiyos. “Shashmaqom”dan tortib, barcha mumtoz qo'shiqlarimiz musiqasi ijrosida tor sasi alohida ajralib turadi. Shu bois, tor cholg'usi hofiz-u go'yanda, qo'shiqchi-yu xonanda ahli tanasining bir bo'lagiga aylanib ulgurgan. Odatda, “umrida tor ushlab ko'rmagan” iborasining o'zidan “yulduz” yasab olgan otarchilarga nisbatan ishlatilishi ham uning milliy qo'shiqchilik san'atimizdagi o'rni, nufuzi naqadar yuksak ekanini ko'rsatadi.

Musiqacholgu'lari bilan savdo qiladigan do'konda qatorlashtirilib qo'yilgan torlarning narxi bilan qiziqdim.

(Davomi 6-sahifada.) ➔



VATAN MANZUMASI

Eshqobil SHUKUR

SHOIR BILAN SUHBAT

Telefon daftaram varaqlay turib,
Ko'plab raqamlarga duch keldim.. nogoh
Abdulla Orifning raqamin ko'rib,
Ko'zlarim tubidan sizib chiqdi oh.

Lafzi buyuk edi she'rda, dostonda,
Har so'zi osmondan yerga tushgan tosh.
Mana, necha yilkim O'zbekistonda
“Uning firog'ida fig'on chekar Shosh”*.

Shoir bu dunyodan olis esa-da,
Telefon raqamin terdim basma-bas.
Menga rost, sizga-da yolg'on esa-da,
Telefondan keldi o'sha tanish sas.

Hayajonga to'lib “Assalom!” dedim,
Assalom, so'z ila she'rning ustoz.
Men-ku bu dunyoda vassalom edim,
Ko'nglimni uyg'otdi uning ovozi.

“Vatan tinch-omonmi, xalqim omonmi?..”
Go'shakda ohangday yangrardi bu sas.
Uning har so'zida chaqnagan shonni
Asrlar yelkada ko'tara olmas.

“Tilim bezavolmi, elim qutlug'mi?”
Har so'zdan titrardi go'shak simlari.
O'zbek tug'ish uchun bunday ulug'ni
Yechishi shart edi ming tilsimlarni.

Men hayratda edim nargi dunyodan
Yangrab kelar edi bu o'ktam ovoz,
Har so'zida bir sha'n, bir she'r bunyodan
Abdulla Orifning shiddatiga mos:

“Goh bola, gohida bobodir millat
Goh yo'ldan o'tar u, goho xatardan...
Har ne bo'lganda ham yetkazmay illat
Avaylab o'tkazing svetofordan”.

Bu mo'jiza edi, shu jonsiz simlar
Bog'lab turar edi ikki dunyoni.
Olis jannatlardan kelgan nasimlar
Fayzga to'ldirardi olamroni.

Olisdan ko'p aziz bir sado kelar,
Jumalarga jamlab yer-u osmonni:
“Ishoning, hammasi joyida bo'lar,
Qattiq sevsangiz bas O'zbekistonni!”

Bildimki, osmonga ustun – muhabbat,
Angladim, odamzot qaydan kuch olar.
Vatanini sevmog'ning o'zi saodat,
Vatanini sevgan qudratli bo'lar.

*Abdulla Orifov satrlari.



Boshlanishi 1-sahifada.

Ochig'i, o'shanda ko'nglimdagi fikrlarning bir qismigina tilga ko'chdi, xolos.

Bugungi shiddatli axborot asrida gazeta-day ko'hna vosita nima demoqchi bo'lsang, hammasini batafsil bayon etishga imkon beradi. Suhbatga taklif uchun rahmat.

– Chindan ham, bu borada gazetaning o'rnini hech bir internet sahifasi bosa olmaydi. Imkoniyatdan foydalanib, bu boradagi fikrlaringizni biz bilan baham ko'rsangiz.

– Bugun dunyo xaritasiga boqsak, taraqqiyot poygasida tabiiy resurslarga boy davlatlar emas, aynan ilmiy-texnika sohasi rivojlangan davlatlar peshqadam ekanini ko'ramiz. Koshki, ular o'zlarining bu natijalaridan tinchlik va o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lida foydalansa, yo'q, aksincha, ularning eng qudratli-lari o'z ta'sir doirasini kengaytirish, dunyo bozorlarini qayta taqsimlab olish, geosiyosat markazi bo'lish, qarz evaziga hududlarni egallash, bir so'z bilan aytganda, superxoqonlik iddaosi yo'liidan borayotgani tashvishli.

– Bu hol barchani tashvishlantirmoqda. Mana shunday sharoitda mamlakatimiz oydinlari qanday yo'l tutishlari lozim?

– Yuz foiz aminmanki, buyuk bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy yo'lini tutgan odam yutadi. Bu yo'l o'z davrida jadiclik,

to'q va hatto, ko'pchiligi boy-badavlat insonlar edi. Hayotning jamiki noz-u ne'matlaridan rohatlanib yashashlariga hech bir monelik yo'q edi.

– Nima sababdan ular osoyishta hayot-dan voz kechib, dastavval mablag' va mulklarini, keyinroq martabalarini, eng oxirida hayotlarini bu yo'lga tikkan? Siz bu borada qanday xulosaga kelgansiz?

– Aslan jadiclik tagida ta'limning shakli emas, mazmuni yotadi. Behbudiyning o'rniga o'zimizni qo'yib ko'raylik-da, shunday savol qo'yaylik: 1910-yillarda Yevropa gimnaziya va litseylari, ayniqsa, universitetlari-da ta'lim dasturi qanday edi-yu, bizning ta'lim muassasalarimizda qanday bo'lgan? Biror tadqiqotchi buni o'rgansa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu narsa aniqki, bizda matematika, hatto, Muhammad Xorazmiy algebrasini o'qitish ham unutilgan edi o'sha vaqtlarda. Beruniy va Ulug'beklar davridagi sferik trigonometriyani tilga olmasa ham bo'ladi. Xuddi shu davrda Germaniya universitetlarida yangi fizika, kimyo, fiziologiya kabi fanlar Nobel mukofoti sohiblari tomonidan o'qitilayotgan edi.

Muhimi, G'arbda ta'lim jamiyatdagi

ma'lumotlarini o'g'irlash, kompyuterlarga virus yuqtirish yoki maxsus dastur vositasida istalgan paytda ularni ishdan chiqarish, dasturlashtirilgan avtomobil, uchoqlar va banklarga tajovuz imkoniyatlari naqadar xavfli. Qolaversa, bular hammasi – bugungi ahvol, ertaga bu borada qanday "ixtiro"lar qilinadi, ularni qanday niyatli kuchlar bosh-qaradi, oqibati nima bo'ladi – tasavvur o'zj.

Bunday xavf-u xatar dolzarb bo'lmagan taqdirda ham shuni unutmaslik lozimki, brend darajasida sotilgan birgina ixtiro keltiradigan foyda ancha-muncha mamlakatning bir yillik byudjetidan kattaroq bo'lishi mumkin. Masalan, APPLE kompaniyasining 2024-yildagi daromadi 400 milliard dollar atrofida bo'ldi. Biroz kulgili bo'lsa ham yana bir misol: AQShlik Mariya Donovan degan xonim ixtiro qilgan suvshimar taglik (pampers) hozirgacha bu mamlakatga trillion dollarga yaqin foyda keltirdi.

Har qanday mahsulot yoki texnologiya yangilanar ekan, u juda katta qo'shimcha qiymat bilan sotilishi tabiiy. Shuning uchun xarid qiluvchilar yil sayin ko'proq mablag' sarflashga majbur bo'ladi. Bu ayniqsa, informatsion texnologiyalar bozorida yaqqol ko'zga tashlanadi. Kompyuter va mobil telefonlarning avlodlari juda tez yangilanmoqda.

– Mana shunday muhitda bugungi jadiclar deb kimlarni aytish mumkin?

– Ixtiro qilishga intilayotgan, qilgan ixtirosiga patent olish uchun kurashayotgan, ixtirosini amaliyotga joriy qilib, yangi mahsulot ishlab chiqarishga intilayotgan va ularni eksport qilib, "o'zbek brendi"ni dunyoga olib chiqishni niyat qilayotganlar – jadiclardir. Millatga o'zligini anglatishni, yurt yoshlarini ilm-hunar egallashga da'vat qilishni, Vatanga yaxshilik sog'inishni kasb qilganlar – jadiclar. Men boshqacha bo'lishini tasavvur etolmayman.

– Aynan shunday. Faqat javobdan o'zgina ajablangan joyim bo'ldi. Nega endi ixtiroga patent olish uchun kurashish kerak?

– Hamma gap shunda-da. Bir paytlar faqat ixtiroga patent, kashfiyotga guvohnoma berish bilan shug'ullanadigan byuro bo'lgan. 2011-yili intellektual mulk agentligi tuzilib, texnik ixtirolarni patentlash, musiqa asarlariga va boshqa ijodiy mahsulotlarga mualliflik guvohnomasi berish ham ana shu idora zimmasiga yuklandi. Sababi ayon – u ham yangilik, bu ham yangilik, har ikkisi ham ijod mahsuli. Ammo bizning sharoitida eng ezgu ishning ham avra-astarini ag'darish odatiy hol. O'zingiz tasavvur qilib ko'ring – qo'shiqqa mualliflik guvohnomasi oladigan otarchiga munosabat qayoqda-yu, o'z yonidan pul sarflab ixtironi amalga oshirgan va bir quchoq hujjat hozirlagan muhandis yoki ilmiy xodimga muomala qayoqda? Artistlar uchun bu ish xamirdan qil sug'urganday oson kechmoqda, ixtirochilar esa...

Yillab ovora bo'lgan va bo'layotgan ixtirochilar bor. Bir paytlar patentchilar ixtironing qay darajada yangiligini maxsus byulletenlarni titib aniqlashar va bu ancha vaqt talab etar edi. Holbuki, biz hozir axborot inqilobi davrida yashayapmiz. Xo'sh, nega haligacha ixtironi ekspertizadan o'tkazish oylab vaqt talab etyapti? Bu holat tushunarsiz.

Ehtimol shuning uchun ham aholi jon boshiga patentlar soni bo'yicha mamlakatimiz past o'rinda, ularni joriy etish bo'yicha esa yana ham quyiyoqdadir.

Mamlakatimizda ixtirochilar ko'p, ijtimoiy tarmoqlarda energiya tejimli betonqorqich, yangi qurilish materiali, original qishloq xo'jaligi agregati va hokazolarni yaratayotgan hamyurtlarimiz haqida xabarlar tez-tez chiqib turadi. Ammo hozirgacha biror yurtdoshimizning yangi ixtirosi ommaviy ishlab chiqarila boshlangani, dunyo miqyosida shov-shuv bo'lganini eshitmadik.

Nega? Qachongacha?

Ixtirochilik harakati iqtisodiy taraqqiyotning lokomotiviga aylanishi uchun patent byurosi qayta tiklanishi maqsadga muvofiq. Muhimi, u patent xizmati ko'rsatadigan, ish uslubi mohiyatan byurokratik idoradan farq qiladigan, qayerda ixtirochi bor bo'lsa, izlab topadigan, nafaqat ixtironing yangiligini ekspertizadan o'tkazib guvohnoma beradigan, balki ularni joriy qilinishi uchun mas'ul idora sifatida o'zi yelib-yuguradigan obyektga aylantirilishi kerak.

– Bunga nima xalaqit beryapti?

– Kim bilsin. Balki patent byurosining byudjetini asosan ishlab chiqarishdan topiladigan daromaddan olinadigan ulush evaziga shakllantirish usulini joriy etish kerakdir. Shunda patentshunoslari aynan samarador ixtirolarni tezroq patentlashdan manfaatdor bo'ladi. Buning uchun Patent byurosi ixtiyoriy loyihalashtirish instituti va tajriba-konstruktorlik korxonasi bo'lishi ham kerak. Darvoqe, ixtiroga hammualliflik iddaosini qilmasliklari uchun Patent byurosi xodimlariga ixtirochilik bilan shug'ullanish man etilishi kerak. Bu idora ayni paytda ixtirochilarni ishlab chiqaruvchilar bilan bog'lovchi vazifasini o'tashi lozim. Yangi ixtiro qilingan ishlanmalar va mahsulotlar (xizmatlar, texnologiyalar)ning doimiy ko'rgazmasi yuritilishi, yilda bir marta yarmarkasi tashkil etilishi ham ayni muddao bo'lar edi.

– Ustoz, Sizni ayrimlar adabiyotshunos, boshqalar esa matematik olim sifatida taniydi. Ixtirochilik borasida, uning muammolari haqida bunchalik puxta tasavvurga egaligingizdan xayolingma shu savol keldi: o'zingiz ham ixtirochilik muammolari bilan to'qnash kelganmisiz?

– Yaraga tuz sepdingiz. Kamina sof nazariyotchi ahli ilimga mansubman. Ayni paytda matematikaning ixtirochilikka tushadigan nuqtalari ham yo'q emas. "Myobius yaprogi" deb ataladigan geometrik sirtidan har ikki tomoni qumli silliqlash lentasi yasalgan. XIX asrda S.Blek "O'n besh" o'yinini ixtiro qilgan. U o'z davrida venger ixtirochisi Ernoy Rubik o'ylab topgan "kubik-rubik" o'yinidan ham mashhurroq bo'lgan. Hatto, gazetalarda "15" o'yiniga berilib ketgan mashinist poyezdni boshqarishni unutilib, uning halokatiga sabab bo'lgani haqida ham yozishgan. Rubik kubchasi ommalashib ketgach, uning patentini sotib olish ham qimmatlashib ketgan. Holbuki, oddiygina o'yinchoq Vengriyaga shuhrat va milliardlab daromad keltira boshlagan edi. Shunda sobiq Ittifoq va Vengriya hukumatlari boshqotirg'ich ayirboshlashga kelishgan. 1989-yili "Комсомолская правда" gazetasi boshqotirg'ichlar tanlovini e'lon qildi. Kamina "Dodekaedr" degan matematik boshqotirg'ich bilan unda ishtirok etib, g'oliblardan biri bo'ldim. Yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy qilish sovet iqtisodiyotida qiyin ish edi. O'n ta ixtironing birortasi ishlab chiqarilmadi. Men yangi boshqotirg'ichlarni o'ylab topishda davom etdim. Ulardan biriga patent olishga urinib ko'rildi, qancha vaqt Beshyog'ochda joylashgan patentlar kutubxonasida ixtironing yangiligini asoslashga sarf bo'ldi. Ammo urinishlarim zoye ketdi. Ariza bir qancha hujjatlar ilova qilinib, Moskvadagi patent byurosiga pochta orqali jo'natilgan edi. Arizalar birda unisi kam, birda bunisi yetishmaydi, degan vaj bilan qaytarildi. Bu orada SSSR parokanda bo'ldi, mustaqil O'zbekistonning o'z patent byurosi tuzildi. Afsuski, u sobiq Ittifoq byurosining ish uslubi aynan ko'chirib olgan edi. 2000-yillarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi S.Ismatxo'jayev bir ixtirosini matematik asoslash masalasi bilan murojaat qildi. Issiqlik elektrostansiyalari samaradorligini oshirishga qaratilgan bir ixtiro uchun u kishi bilan birga patent olishga muvaffaq bo'lindi, ammo yana bir shunday ixtiro uchun berilgan ariza bir yildan ko'proq sarson qilindi. Holbuki, u amaliyotga joriy etilib, samara bera boshlagan edi. Laboratoriyamizda issiqlik almashuv jarayonlari sohasiga qiziqib, yana bir prinsipial yangi ixtiro g'oyasiga patent olmoqchi bo'ldik. Uning asosiy qismlaridan biri murakkab geometrik tuzilishga ega edi. Patentga ariza berish uchun uning chizmasini, ishlash prinsipini asoslash uchun real maketini tayyorlash lozim edi. Chizmalarni-ku kompyuterda yasash imkoniyati tug'ilgan, ammo maket-chi? Kartondan maket yasaldi, ammo biror tokar uni metalda yasab bera olmadi. Xullas, bu xobbin yig'ishtirishga to'g'ri keldi. Endi tasavvur qiling, chekka qishloqda yashaydigan havaskor samarali qishloq xo'jaligi texnikasi bo'yicha ixtiro qildi, deylik. Xo'sh, u qayerga boradi?

Amerika Qo'shma Shtatlarining qudrati ham, shuhrati ham asosan ixtirochilik uchun maksimal qulay muhit yaratilganida deb

o'ylayman. Bugun shunday muhit Xitoyda ham mavjud, shu sababli dunyo bozorlarini "Made in China" tamg'ali mahsulotlar bosib ketdi.

Beixiyor qiyoslaysan: bizda-chi? Qaysi o'zbek ixtirochisining yangiligi tovarga aylantirilib, dunyo bozoriga chiqarildi?

Bundan 15 yilcha avval vodiylilik bir o'smir qo'lbola dron (kvadrokopter) yasab uchirgani haqida xabar tarqalgan edi. Dron boshqarilmaydigan bo'lgani uchun qo'shni davlat hududiga qo'ngan. Ijtimoiy tarmoqlardagi muhokamalarga ko'ra, yigitchaga ma'muriy chora ko'rilgan. Albatta, dron yasash yangilik emas. Ammo u yigitchada ixtirochilikka moyillik va iqtidor bo'lgan. Agar u qo'llab-quvvatlanganida, balki keyinchalik boshqariladigan dron yasagan bo'larmidi...

Axir, Sergey Korolyov ham bosh konstruktor bo'lib dunyoga kelmagan, ilk faoliyatini oddiy fanerdan qo'lbola uchish moslamasi yasashdan boshlagan. Turkiyalik aka-uka Xaluk va Saljuq Bayroqdorlar ham shunday yo'lni bosib o'tishgan.

– Sizningcha, bugun iqtisodiyotimiz uchun eng dolzarb ixtirochilik sohasi qaysi?

– Yaxshi savol. Mamlakatimiz iqtisodiyotida paxta xomashyosini tayyor mahsulotga aylantirish salmoqli o'rin egallashi ma'lum. Uzoq yillar davomida O'zbekiston paxta tolasini eksport qilib keldi. Bu – mehnatni dehqon qilib, foydasini xorijlik fabrikantlar ko'radi, degani edi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev esa paxta tolasini imkon qadar chuqurroq qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirib, so'ng sotish siyosatiga katta e'tibor qaratmoqda. Mamlakatimiz eksportida tayyor kiyim-kechak ulushi ortib borayotgani quvonarli. Bu borada yana bir muhim masala kun tartibiga chiqmoqda. U ham bo'lsa, paxtani qayta ishlash – tolani chigitdan ajratuvchi, ip yigiruvchi, gazlama to'quvchi va oxirgi bosqichda tikuvchi asbob-uskunalar ishlab chiqarishdir. Hozirgacha ular asosan xorijdan sotib olinmoqda. Holbuki, har qanday dastgoh vaqt o'tishi bilan eskiradi. Ham texnik jihatdan, ham "ma'naviy" jihatdan. Shu ma'nodaki, avval sotib olingan texnika o'z o'rnini yangisiga, samaraliroq, energiyatejamkorroq, kompyuterlashgan (yaqin yillar ichida esa sun'iy intellekt boshqaradigan) yangi avlodlariga bo'shatib beradi. Bu hodisani yuqorida informatsion texnologiyalar misolida ham aytib o'tdim. Dastgohlarning yangi avlodi avvalgisidan ancha qimmat bo'lishi, paxta xomashyosining narxi esa juda sekin o'sishi hisobga olinsa, paxtachilikdan keladigan daromad yil sayin pasayib boradi, degan xulosa chiqadi. Shunday ekan, paxtani tayyor mahsulotga aylantiradigan uskunalar kamida bir-ikki turini o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarur. Faqat bu bilan cheklanmay, ana shunday uskunalarni muntazam yangilab berishni ta'minlaydigan texnologiya yaratilishi ham nihoyatda dolzarb. Buning uzviy sxemasi yaxshi ma'lum: ilmiy-tadqiqot instituti – ixtirochilik va ratsionalizatsiya markazi – tajriba-konstruktorlik byurosi – sinab ko'rish nusxasini yasaydigan ustaxona – zavod.

Bundan tashqari, innovatsiyalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimi ham yaratilishi kerak.

AQSh iqtisodiyotining yuksalishi aynan paxtadan boshlanganini eslash o'rinni. O'sha davrlarda (bizda XIX asr oxirlarigacha) paxtaning tolasini chigitdan qo'lida ajratilgan. Tasavvur qiling-a, millionlab tonna paxtani shu tariqa tolagi aylantirishning o'zi bo'lardimi? 1793-yilda Eli Uitni paxta tozalovchi "jin-mashina" ixtiro qiladi. Shu tufayli tolaning tannarxi keskin arzonlashib, AQSh paxta bozorida boshqa davlatlarni sindirdi.

– Yurtimizda ixtirochilikni rivojlantirish borasida qaysidir tashkilotlarga o'z takliflaringizni berganmisiz?

– Yigirma yilcha burun bir qadrdonim oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasiga rahbarlikka tayinlandi. Qutlagani bordim. Suhbat asnosida "takliflaringiz bo'lsa, aytning", dedi. "Qani endi, kasb-hunar kollejlari va texnika oliy o'quv yurtlarida ommaviy ixtirochilik harakati boshlansa", deb ishni har yili o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining talabalari o'rtasida "Yosh ixtirochilarning respublika ko'rik-ko'rgazmasi"ni o'tkazishdan boshlashni taklif qildim. U ma'qul topdi. Ko'rik bir marta o'tkazildi ham. Ammo negadir davom ettirilmadi. Balki bu sohaga e'tibor sust bo'lgani uchun birinchi yiliyoq shov-shuvli natija chiqmagandir. Agar u izchil davom ettirilib, hukumat miqyosiga olib chiqilganda, hozirgacha muhit o'zgargan bo'larmidi.



Behbudiyning izdoshlari esa jadiclar (mujaddidlar) deb atalgan. Afsuski, yurtini, elining tafakkurini yangilashga intilgan jadiclar "rahmat" o'rniga "qadimchi"lar degan muxolifatga duch kelgan, hatto bir jadidga yuzlab "qadimchi" to'g'ri kelgan. Jadiclar ular tomonidan tazyiq, haqorat va qatag'onlarga uchragan.

"Jadid" so'zining lug'aviy ma'nolari – yangi, yaqinda paydo bo'lgan, zamonaviy, so'nggi rusumdagi, odat tusiga kirmagan, an'anaga teskari. Zamonaviy ibora bilan aytganda, novatorlik, innovatsiya deganidir.

– Yurtimizda XX asr boshlaridagi jadiclik harakati nimadan boshlangan? Qanday zarurat bunga turtki bergan, deb o'ylaysiz?

– Ta'limni yangilash uchun harakatdan boshlangan. Sirtidan olib qaraganda, eski maktablarda turli yoshdagi bolalar aralash, bo'yra o'qitirib o'qishgan, madrasalardagi ta'lim usuli ham undan yiroq bo'lmagan, jadiclar esa o'quvchilarning parta va yozuv taxtasi bilan jihozlangan sinfonalardagi saboq o'tishi tarafdori bo'lishgan. Ammo bu jadiclikning sirtgi jihati edi, xolos. Qadimchilarning qarshiligiga uchragan asosiy jihat – ta'lim mazmunini yangilash bo'lgan. Behbudiy Turkiyaga safari chog'ida usmonlilarning ilg'or oydinlari bilan suhbatlashib, bu mamlakatga endigina ta'sir o'tkaza boshlagan Yevropa maktablari va universitetlaridagi ta'lim tizimi bilan tanishgan. O'zimizni buyuk bobomizning o'rniga qo'yib ko'raylik: bir yoqda algebra u yoqda tursin, hatto arifmetika ham yolchitib o'qitilmayotgan ta'lim, ikkinchi tomonda esa matematik fizika, organik moddalar sintezi, genetika va hokazo. Oqibatda, bu yoqda ulovli yog'och aravalar, u yoqda avtomobillar va elektr chiroqlari. Bu farqni bir so'z bilan "dahshatli" deb ifodalash to'g'ri bo'ladi.

Millat taqdiriga befarq, xudbin odamlar bunga parvo ham qilmas edi. Ammo jadid bobolarimiz buyuk millatparvar edilar, jamiyatni taraqqiyot sari yuzlantirish harakatini boshlaganlar, bu borada ulkan natijalarga erishganlar ham (birgina o'zbek matbuotiga asos solganlari uchun ularni to'qiyomatgacha alqashga burchlimiz), alal oqibat bu yo'lida jonlarini qurbon qildilar.

Aslida, jadiclik harakati rahnamolarining barchasi jamiyatda obro'-e'tiborga ega, o'ziga

ilmiy-texnika taraqqiyotining lokomotiviga aylangan, shu tufayli ichki yonuv dvigatellarini joriy etish, elektrlashtirish kabi mo'jiza bo'lib tuyuladigan yangiliklar hayot tarzini keskin o'zgartirib yuborayotgan, bizda esa holat eskilgicha qolayotgandi. Ana shu farqni anglagan, butun fitrati bilan millatparvar bo'lgan jadiclar taraqqiyparvarga aylanishdi. Bugun endi ularning ta'limoti ham, kurashi ham, achchiq taqdiri ham barchaga yaxshi ma'lum. Bu narsalar "Jadid" gazetasi sahifalarida batafsil yoritilmoqda. Har tomonlama xayrli bo'lgan bu ishni davom ettirish kerak, albatta.

Ayni paytda, agar jadid bobolarimiz tirik bo'lishganida, qanday yo'l tutgan bo'lar edilar, degan savolni ko'tarish vaqti allaqachon yetgan.

– Bugun zamon o'zgacha demoqchisiz, shekilli?

– Xuddi shunday. Jadid bobolarimiz davrida ta'lim sohasida bizdagi va Yevropadagi farq naqadar katta bo'lsa, bugun ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsiyalar jadalligidagi farq ham undan kam emas. Sirtidan qaraganda, bu borada ham rivojlanish qoniqarli, tashvishga hojat yo'qday tuyuladi. Qayerga qaramang, hamma yerda yangi mahsulotlar, yangi texnika va texnologiyalar joriy etilmoqda. Shu jumladan, sun'iy intellekt vositalarini o'rganish va foydalaniish borasida ham. Ammo masalaning mag'zi – qay tarzda degan savolda. 99,9 foiz holda sotib olish yoki o'zlashtirish evaziga. Atrofimizda bir nazar tashlaylik. Uchoqlar, charxucharlar, radiolokatsiya, geolokatsiya, avtomobillar, elektrotexnika, elektronika va elektroenergetika jihozlari, sovitkichlar, televizorlar, telefon, kompyuter, qisqa to'lqinli elektr-o'choqlar, qurilish asbob-uskunolari va materiallarining deyarli hammasi G'arb mamlakatlarida, asosan AQShda o'yab topilgan. Hatto avtomobilni yomg'ir yog'anda ham haydashga imkon beruvchi "deraza faroshlari"ni Meri Anderson degan AQShlik ayol o'yab topgan. Bu mamlakatda ot o'rimga dvigatel qo'shilgan aravadan to sun'iy intellekt bilan qurollantirilgan avtogacha minglab ixtiro joriy qilingan.

Kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida ham shu ahvol. Ayrim superdavitlar bu sohalarda jahon bozorini egallab olgani ularga ulkan iqtisodiy foyda keltirishdan tashqari, geosiyosiy ustunlik ham bermogda. Internetlashgan bugungi dunyoda mijozga sezdirmasdan uning xos



Umuman kitob o'qimaydigan mehnatkashdan ko'ra, kitob o'qiydigan dangasa bilan ishlagan yaxshiroq. Chunki u doim qiyin topshiriqlarga oson yechim topadi.

Bill GEYTS



KIRISHMOQ KERAK”

– Bunday muhitni yaratish uchun endi nimalar qilish kerak?

– Birinchi navbatda “hechdan ko’ra kech” deganlaridek, mazkur ko’rik-ko’rgazma-tanlovni tiklash, hatto uni ixtirolar auktsioni darajasiga olib chiqish ayni muddao bo’ladi. So’ng yoshlar orasida ilmiy-texnik tafakkur shakllanishiga e’tiborni kuchaytirish kerak. Bir paytlar amerikalik yoshlarning ma’budlari Merilin Monro kabi kinoyulduzlar, Elvis Presli kabi estrada yulduzlari, mashhur basketbolchi va beysbolchilar bo’lgan. Ammo shuni ham ta’kidlash lozimki, Tomas Edison, aka-uka Raytlar ham mashhurlikda ulardan qolishmagan. Axborot texnologiyalari inqilobi boshlanishi bilan Bill Geys (Microsoft), Stiv Jobs (Apple), Larri Peyj va Sergey Brin (Google), Mark Sukerberg (Facebook) kabi innovatsiya darg’alari amerikalik yoshlar uchun yo’lchi yulduzga aylandi.



Bugun AQShlik yoshlar o’rtasida mashhurlikda hech bir yulduz Ilon Maskning yaqiniga ham yo’lay olmaydi. YouTube kanalida Ilon Maskning yangi mahsulotlari taqdimoti yoki sun’iy intellekt haqidagi suhbatlari zalda o’n minglab tomoshabinni yig’adi, ijtimoiy tarmoqlardagi kuzatuvlar soni esa yuz milliondan oshadi. Darvoqe, yigirmanchi asrda dunyoda eng mashhur sobiq Ittifoq fuqarosi ham aynan ixtirochi M.Kalashnikov bo’lgan. Bugun ham Rossiya aynan harbiy ixtirochi-muhandislari bilan qudratli bo’lib turibdi.

Yana bir muammo – yoshlarning ilmiy-texnik tafakkurini shakllantirishga ommaviy axborot vositalarining loqayd bo’lib kelayotgani. Bir zamonlar “Yosh texnik”, “Kuch – bilimda”, “Fan va turmush”, “Rulda”, “Texnika”, “Elektronika”, “Yosh naturalist”, “Kvant” degan jurnallar millionlab nusxalarda nashr etilgan, markaziy televideniya ixtirochilik va ilmiy-texnikani targ’ib qiluvchi dasturlar ancha ommalashgan edi. Ularni o’qigan, ko’rgan o’quvchilarning katta qismi texnikaga shaydo bo’lar, nimanidir o’z qo’li bilan yasash ishtiyoqiga tushar edi. Bu esa bo’lg’usi muhandis, ixtirochilar uchun dastlabki zaruriy qadamlardir.

Bugun ahvol qanday? Boshqa MDH davlatlarida ahvol qandayligini bilmayman, ammo bizda televideniyaning asosiy qahramonlari hamon qo’shiqchilar, raqqosalar, hatto telejurnalistlarning o’zlari...

Qat’iy ta’kidlash joizki, yurtimizning shon-shuhratini dunyoga yoyishda sportga teng keladigan soha hozircha yo’q. Xalqaro musiqa va opera tanlovlarida g’oliblikni qo’lga kiritishga qodir iste’dodlar ham shunday maqtovga loyiq. Qolaversa, kuy-qo’shiqlarsiz to’y-tantana tasavvurga sig’maydi. Bular ikki karra ikki to’rt deganlaridek, ravshan haqiqat. Faqat shovqin bilan cheklanish yomon. Kimlargadir og’ir botsa ham qayd etish lozim: sport ham, san’at ham bugungi hayot uchun zarur, ixtirochilik, innovatsion tadbirkorlik esa davlatning qudratini, millatning kelajagini belgilovchi omillardir.

Yana takrorlaymiz, bu sohalarini bir-biriga zid qo’yish aqlidan emas. Ammo qushning ikki qanoti ham sog’lom, baquvvat bo’lsagina u yuksaklarga parvoz qila oladi. O’xshatish tushunarli bo’lsa kerak. Xo’sh, bizda taraqqiyot lochinining u qanoti qanday-u, bu qanoti qay holda? Bu borada jurnalistlarimizdan gina qilishga haqlimiz. Ayniqsa, telejurnalistlardan. Tokaygacha lapar-u yallachilarni osmonga olib chiqib, yulduzga aylantirish bilan shug’ullanasiz? Ular bilan bir qatorda, hatto birinchi navbatda ixtirochilikka intilayotgan iste’dod egalarini izlab topishga kirishning (ularning ko’pligiga shubha yo’q), xalqqa tanitning, muammolarini hal qilishga ko’maklashing. Shuni bilingki, ularda mo’may pul topish imkoniy yo’q, aksincha, o’z faoliyatida deyarli har qadamda obyektiv va subyektiv to’siqlarga duch kelishadi. Ularni qo’llab-quvvatlashga mahalliy hokimiyat va sarmoyadorlarni jalb qiling, kerak bo’lsa, ularni

byurokratlardan himoya qiling. Ularning har bir muvaffaqiyatini keng targ’ib qilingki, xalq bilsin, yaqindan tanisin.

Unutmash kerakki, tadbirkorlik erkin gullab-yashnaydigan muhitdagina ixtirochilik unib-o’sadi. U hosilga kirganida esa mamlakat shuhratini yuzlab yillar davomida olamga yoyadi. Yurtimizning taraqqiy qilgan davlatlar safiga qo’shilishida o’ta muhim rol o’ynaydi.

Bu borada “Jadid” gazetasiga bir taklifim bor: tahririyat jadid bobolarimiz faoliyatini yoritishga bir sahifa ajratsa, bugungi jadidlik, ya’ni ixtirochilik va innovatsiyalarga ikki sahifa o’rin ajratishi kerak. Shunda ma’rifatparvar ajdodlarimizning ham ruhi shod bo’ladi.

Qani endi, har yili mustaqillik bayrami arafasida mukofotlanadiganlar qatorida o’z ixtirosi bilan tanilgan ixtirochilar, novatorlar soni san’atkorlaridan kam bo’lmasa. Qani endi,



falokat keltirib chiqargan. Darvoqe, Fukushima-1 stansiyasidan 10 chaqirim masofadagi Fukushima-2 atom stansiyasi hamon bir maromda ishlab turibdi.

Bu ikki yirik hamda yana bir necha kichikroq avariya sababli bugun AES qurilishi va ekspluatatsiyasining xavfsizligi inson qo’li bilan bunyod etilgan va etiladigan barcha inshootlar xavfsizligidan bir necha marta yuqoriga ko’tarilgan.

Yana bir kontr-dalil – qurilish sifatiga kafolat yo’q degan ro’kach. Birinchidan, AES qurilishi bajaruvchi mamlakatning maxsus nazorat organi tomonidan kuzatib boriladi. Axir, AESning xavfsizligi shu mamlakat obro’si uchun ham, iqtisodiy uchun ham naqadar muhimligi kunday ayon. Ikkinchidan, qurilishning har bir qadami BMTning atom energetikasi bo’yicha maxsus tashkiloti – MAGATE agentligi tomonidan nazorat qilinadi. Uchinchidan, buyurtmachi qurilish jarayonini istalgancha kuzatish va nazorat qilish, jumladan, kun-u tun ishlaydigan videokameralarga yozib borish imkoniyatiga ega.

O’zbekistonlik o’nga yaqin yadrochi fiziklarimiz dunyoning yetakchi yadroviy tadqiqot markazlarida ishlaganlar, ulardan bir nechtasi MAGATE inspektori vazifasini ham bajargan. Atoqli o’zbek olimi Behzod Yo’ldoshev mashhur Stenford va Vashington universitetlarida yadro fizikasi bo’yicha professor bo’lgan. O’zbekiston Fanlar akademiyasining 1956-yili tashkil etilgan Yadro fizikasi institutida 1959-yilda yadro reaktori ishga tushirilgan. Bu reaktorning ishlash prinsipi AES reaktoriidan katta farq qilmaydi. Shuncha yildan buyon yurtimiz atomchilarining bir necha avlodi reaktorning xavfsizligini ta’minlab, mamlakat fani va iqtisodiyotining yuksalishiga o’z hissarini qo’shib kelmoqda.

Yurtimiz yerosti boyliklari ro’yxatida uran rudasi salmoqli o’rin egallaydi. Bu ruda ham tabiiy gaz va ko’mir kabi bir yoqilg’i, AES o’choqlarida yonib elektr energiyasi berishi kerak. Maktabda fizikani tuzukroq o’qimagun odam xodalar bilan sim tortib kelinsa bas, elektr o’zi oqib kelaveradi, deb o’ylaydi. “Atom elektr stansiyasi – bomba!” degan iddao undan ko’p farq qilmaydi.

O’zbekistonda AES qurilishi uchun barcha sharoit ham, o’tkir zarurat ham bor. AES elektr energiyasi ishlab chiqarish barobarida suvni chuchuklashtiruvchi vosita hamdir (Isroilda shu usulda olingan suv iste’mol qilinadi). Shuningdek, AES qurilishi boshlanishining o’ziyoq mamlakatning xalqaro obro’sini yuksaltiradi – yurtimiz “Yadro energetikasi klubi”ga a’zo davlatlar safiga kiradi, muhandis kadrlar tarkibida sifat o’zgarishi yuz beradi, iqtisodiy taraqqiyot uchun ham, ijtimoiy rivojlanish uchun ham mustahkam poydevor yaratiladi. Zotan, yurtimizda gaz va ko’mir zaxiralari hisobli, suv va shamol energetikasi imkoniyatlari cheklangan, quyosh stansiyalarini ekspluatatsiya qilish akkumulyator va panellarni utilizatsiya qilish muammosini keltirib chiqaradi. AES esa eng arzon va ekologik toza, ayni paytda cheklanmagan miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqarishga imkon beradi.

AES mavzusidagi bahslarda muxoliflar shunday argument bilan og’zingga uradilar: “Avariya yuz bermasligiga kafolat berasizmi?” Aslan to’g’ri savol. Unga savol bilan javob berish to’g’ri bo’ladi: “Uchoqlarda uchasizmi? Ularning doimo sog’-salomat qaytib yerga qo’ni-shiga kafolatigiz bormi?” Fizika-matematika bo’yicha mutaxassis sifatida kafolat beramanki, AESni ekspluatatsiya qilish havo laynerlarini boshqarishdan bir necha chandon oson. Holbuki, yig’italarimiz qiruvchi uchoqlarda murakkab oliy pilotaj figuralarini yasab uchmoqdalar. Ko’z tegmasin, hozirgacha “O’zbekiston havo yo’l-lari” aviakompaniyasining parvozlari xavfsizlik bo’yicha dunyoda eng yuqori o’rinlardan birini egallab turibdi.

Yaqinda yozuvchi Xayriddin Sulton qalamiga mansub yangi “Osmon-u falaklarda” kitobining taqdimoti bo’ldi. Kitobdan o’zbek uchuvchilari haqida uchta hayotiy novella o’rin olgan (Novella personajlaridan biri hamda kitobda bayon qilingan voqealarning bir necha shohidi taqdimotda hozir edilar). Novellalarning birida o’zbek uchuvchisi shassilari ochilmay qolgan yo’lovchi uchog’ini eson-omon qo’ndirgani haqida hikoya qilingan. Albatta, bu – aviatsiya tarixida bo’lib turadigan holat. Novellada so’zlangan holatda yurtidoshimiz uchog’ini shunday qo’ndirgan ekanki, nafaqat biror yo’lovchi, hatto uchog’ ham, bo’yog’i qirilganini aytmasa, umuman ziyon topmagan.

Xullas, ilm-fanga asoslanib ishga kirishmoq kerak, tamom-vassalom. Zamonning talabi shu!

– Aytganlaringiz, keltirgan dalillaringiz kishini sog’lom mulohazaga undaydi. Hatto yoshlarimizga motivatsiya beradi, deb o’ylaymiz. Mazmunli suhbatigiz uchun tashakkur, ustoz.

Suhbatdosh:
Abdulhamid MUXTOROV

BOLALAR KONTENTINI YARATISH – DAVR TALABI

Boshlanishi 1-sahifada.

– Iste’dod va xohishning o’zi kamilki qiladi. Hamma gap ko’ngilni qaritmasdan saqlab qolishda. Ba’zilar 20–30 yoshga kiradi-da, qalbiga e’tibor bermasdan, bolalar uchun ijod qilishni istaydi. Ammo unda kech bo’ladi. Bolalarga yozish uchun qalamkashning o’zi ham bolaga aylanmasa ko’ngildagidek asar kutishning foydasi yo’q. Kichikintoylarning ko’ziga qarab dilidagini anglab olish kerak. Buning uchun bolalikdan uzoqlashib ketmaslik lozim. Aks holda yozavergandan bir ish chiqmaydi.

Bolalar uchun kitob yozayotganda ichingizga 7 yoshli quvgina bolani qamab, unga 70 yoshli mo’ysafidni soqchi qilib qo’ying. Busiz ijod mahsuli bolani qiziqitmaydi, tarbiyalamaydi, yoshi kattalar tan olmaydi, davr qabul qilmaydi. Shunaqa nozik jarayon bu: ham bolalar e’tiborini tortish, ham kattalarga teng yoqish kerak.

Ustozlarimiz ta’kidlaganidek, kuzatuvchi va yaxshi tinglovchi bo’lish ham asosiy shartlardan biri.

Masalan, har bir yangi she’r yo ertagimni mahalladagi yosh bolalarini chaqirib o’qib beraman-da, ko’ziga qarab turaman. Agar yozganim ularga yoqmasa, o’qalanmasdan voz kechaman o’sha qoralamadan. Ma’qul bo’lsa, yanayam boyitishga harakat qilaman.

Bolalar ijodkorining qozisi bolalarining o’zi.

– Xudoyberdi To’xtaboyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbar kabi ustozlarimiz o’tib ketishdi. Ularning yo’lini o’rta avlod vakillari baholi qudrat davom ettirmoqda. Lekin umid, doimgidek, yoshlardan. Siz yangi kitoblarni o’qib borasizmi? Qaysi mualliflarni tavsiya qilasiz?

– Albatta, o’qib boraman. Zamon-doshlar ijodini kuzatmaslik bizni xudbinlik, mahdudlik va manmanlikka olib keladi.

So’nggi yillarda Charos Rahim-qulovanning “Men ikkiga kirguncha” qissasi o’quvchilar tomonidan iliq kutib olindi. Dinara Mo’minovanning kitoblari jozibasini bilan ajralib turadi. “Galaktikada bir kun” qissasi bilan yosh o’quvchilar orasida shuhrat qozongan Sa’dullo Quronovni asarning ikkinchi qismini yozmaguncha muxlisari hol-joniga qo’yishmadi. Bu misollar bolalar adabiyoti namunalarga xalqimiz nechog’li chanqoq ekanini ko’rsatib turibdi.

Shu o’rinda bolalar va o’smirlar nashrlarining o’rnini ham ta’kidlash joiz. Chunki murg’ak qalbg kitobdan oldin yetib boradigan, uni mutolaaning sehirli olamiga olib kiradigan vosita aynan gazeta-jurnallardir. Bu yil “Gul-xan” jurnali tahririyatiga “Oltin qalam” xalqaro tanlovining Bosh sovrini topshirilishi ham bejiz emas. Bu ham bolalar adabiyotini qo’llab-quvvatlash yo’lidagi tizimli islohotlarning yorqin namunasini.

– Zamonaviy dunyo bolalar adabiyotida qanday tendensiyalar ketmoqda? Bugun Buratino, Garri Potterlar davri o’tdi deyishyapti...

– Qaysi bir mutaraqqiy davlatga e’tibor qaratsangiz, bolalar adabiyoti kuchli bo’ladi. Chunki ixtirochilik, kashfiyotchilik bolalikdan shakllanib boradi. Bolaning xayollarga esa adabiyot kuch-quvvat beradi. Masalan, Xitoyda fantastik adabiyot juda kuchli darajada. Turkiyada esa bolalar uchun shunaqangi ko’p kitoblar chiqadiki, o’qib ulgurmaysiz.

Bugungi o’quvchini Buratino yoki Chippolino bilan hayratlantira olmaymiz. Zamonaviy avlodga zamonaviy qahramonlar kerak.

Bizning bolalar adabiyoti yopiq qozon ichida qaynayotganga o’xshaydi. Qandaydir chegaralar belgilab olingan. Tamom. O’shandan bosh chiqarib, olamga boqish kam kuzatiladi.

Misol uchun, ertaklarimizdagi deyarli 90 foiz voqealar cho’llarda, dalalarda, tog’larda kechadi. Nega? Chunki ko’rganimizni tasvirlashga o’rganib qolganmiz. Biron mashhur



o’zbek badiiy qahramoni dengizda, orolda, g’orda qolib ketganini o’qiganmisiz? Bu faqat bizda emas. Sharl Perro ertaklarida o’rmon, Jyul Vern romanlarida dengiz asosiy obyekt. Chunki ularning atrofini o’sha muhit egallab turibdi. Qachondir bu qobiqdan chiqish kerak-ku!

Nega o’zbek bolasi qo’lidagi kitob orqali osmonlarga chiqib, ummonlar tubiga tushib sarguzashtlarni boshidan kechirmasligi kerak? Odamning xayoliga kelmaydigan narsalar yoza olsakkin bolalar yozuvchisi degan nomga loyiq bo’lamiz.

– Jahon adabiyotiga to’xtal-dingiz. Bugun tarjima uchun tanlanayotgan asarlar mazmunidan ko’nglingiz to’ladimi?

– Rostini aytish kerak, yaxshi asarlar ona tilimizga o’g’irilmog’da. Bu borada xususiy nashriyotlarning jonbozligi ham tahsinga sazovor. Ammo so’z erkinligini, noshirlik sohasiga berilayotgan imkoniyatlarni suiste’mol qilayotganlar ham yo’q emas. Ular taqdim etayotgan ayrim asarlar bola ongini zaharlaydi, milliy mentalitetimizga to’g’ri kelmaydi. Hech bir kitobning muqovasiga “Bu zararli!” deb yozib qo’yilmaydi. Ular ham chiroyli va rangli bo’lib chiqadi, bir o’qiganda qiziqarliy qo’rinadi. Ammo kosa tagidagi nimkosa bolaning ongostiga zimdan ta’sir o’tkazadi.

Katta odam bunday asarlarni o’qimay qo’ya qolishi mumkin. Lekin bolaning immuniteti shakllanmagan bo’ladi hali. U bechora nima qiladi? Biz nima qilishimiz kerak? Biz saviyali asarlar bilan kitob bozoriga kirib borishimiz kerak. O’rganishga, yozishga, kerak bo’lsa, asarimizni targ’ib qilishga erinmasligimiz kerak.

Mana shu nuqtada milliy kontent yaratish masalasining naqadar dolzarb ekanligini anglaymiz. Davrning o’zi talab qilmoqda buni.

– Yaqinda “Ulug’bek “pop-korn” sayyorasida” nomli yangi kitobingiz chop etildi. “Yosh kitobxon” talovida bir shart bor: o’quvchi asarning bugungi ahamiyatini aytib berishi kerak. Buni yaxshi bilasiz. Chunki “Tolqon Botir” asaringiz o’sha ro’yxatga kiritilgan. Shu ma’noda, yozuvchi sifatida aytib-chi, yangi kitobingiz o’quvchiga nima beradi?

– Bu savolga muallifning o’zi javob berishi qiyin. Ammo targ’ibot ma’nosida ikki og’iz to’xtalmog’chiman.

Kitob qahramoni ulug’ ajdodimiz Mirzo Ulug’bek bo’lib, qissada ul zotning bolalik davriga ijodiy yondashilgan. Aytish kerakki, Ulug’bek bolaligida ham Ulug’bek bo’lgan, ya’ni zakiyligi, ilm-sevarligi bilan ajralib turgan.

Qissani o’qigan bolalar, avvalo, ajdodimiz bilan yaqindan tanishadi, sarguzashtlar davomida topqirlik, halollik, shijoat va bag’rikenglikni o’rganadi.

Hozir bolalar nasihatni qabul qilmaydi, ensasi qotadi. Shuning uchun ularga go’zal xulq asoslarini fantaziya kuchi bilan, qiziqarli suyuqetlar fonida singdirib borish kerak. Toki bolaning o’zi nasihat eshitayotganini sezmay qolsin. So’zning, san’atning kuchi ham shunda aslida.

– Ertakday qisqa va mazmunli suhbat uchun tashakkur!

Shahriyor SHAHKAT
suhbatlashdi.



JAHON ADABIYOTI

YOLG'IZLIKNING
TANHO YOZUVCHISI

Frans Kafka XX asr adabiyotining sirli va betakror dahosi, inson ruhiyatidagi qo'rquv va xavotirni tipiklashtirish darajasiga olib chiqqan birinchi yozuvchi degan ta'rif bor.

Nemis tilida ijod qilgan chexiyalik yozuvchi 1883-yili Pragada tug'ilib, voyaga yetgan. Nemis gimnaziyasini tugatganidan so'ng, otasining istagi bilan Praga universitetida huquqshunoslik yo'nalishida ta'lim olgan. Otasi German Kafka qattiqqo'l, hissiyotlarga berilmaydigan og'irkarvon inson bo'lgani bois, o'g'lining kitoblarga o'rallashib yurishini yoqtirmagan. Kafka esa ko'ngil va hissiyot odami edi, har qanday adolatsizlik ko'nglida og'riq uyg'otar va u bu tuyg'ularini "Otamga maktub" deb nomlangan asarida batafsil tasvirlagan.

Uning dastlabki hikoyasi 1904-yili nashr etilgan. Tirikligida to'rtta kichik hajmdagi kitobi bosmadan chiqqan. Birinchi asari "Bir kurash tarixi" deb nomlangan. "Qal'a", "Jarayon", "Metamorfoza" kabi mashhur asarlari uni modernizm adabiyotining yetakchi namoyandalardan biriga aylantirgan.

Frans Kafka o'z asarlari orqali nafaqat zamonasini sharhlagan, balki bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan umuminsoniy ijtimoiy va ma'naviy masalalarni teran tahlil qilgan. Shu bois, asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan. Fikr va g'oyalari nafaqat adabiyotshunoslar, balki falsafiy va ijtimoiy soha tadqiqotchilari tomonidan ham hanuzgacha tadqiq etilmoqda. Tiriklik chog'ida bironta ham romani chop etilmagan.

Asarlarini yolg'izlikda, hammaning ko'zidan yiroqda, to'rt devor ichiga qamali, qaltirab-qaqshab yozardi, deb eslaydi do'stlari.

Frans Kafkadan uchta tugallanmagan roman, o'ttizdan ortiq hikoya, novella va kundaliklar qolgan. O'limidan so'ng barcha yozganlarini yoqib yuborishni vasiyat qilganiga qaramay, do'sti Maks Brod uning romanlarini nashrga beradi.

Ha, Frans Kafka qisqa va mashaqqatli hayot kechirdi. Qattiqqo'l otasi, yoqtirmagan ishi, og'ir kasallik va o'ziga ishonchsizlik yozuvchini og'ir iztiroblar chohiga ulotqirgan edi.

U o'z kundaligida "Men go'yo toshdan yaralgandayman, o'zimga qo'yilgan qabrtoshdayman", deb yozib, fojia va iztiroblarini aniq ifodalagan.

TADQIQOT

She'riy roman yozilishi kamyob hodisa. Roman darajasidagi keng qamrovli voqea-hodisalarni nazmiy shaklda ifoda etish juda murakkab.

"She'riy roman" tushunchasi adabiyotshunoslikka kirib kelguniga qadar ham katta hajmdagi she'riy epik asarlar ko'p yaratilgan. Firdavsiyning "Shohnoma"si, Navoiyning "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy" dostonlari, undan ham oldin yaralgan "Iliada" va "Odissey" eposlari mohiyatan olib qaralsa, she'riy romanning bir ko'rinishi bo'la oladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, "she'riy roman" istilohi Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asari yaratilgandan so'ng adabiyotshunoslikka kirib kelgan. Filologiya fanlari nomzodi Lola Ahrova "O'zbek she'riy romanlarining

spesifikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida, jumladan, shunday deydi: "Pushkingacha mavjud she'riy asarlarga nisbatan "katta epik poema", "epik poema", "poema" terminlari qo'llanilgan bo'lsa, o'zbek adabiyotidagi she'riy epik asarlarga nisbatan "doston", "yangi lirik-epik asarlarga asosan" "poema" termini sinonim sifatida ishlatilib kelinmoqda". Olima birinchi o'zbek she'riy romani qaysiligi haqida to'xtalib, "O'zbek realistik she'riy romani Mirmuhsin "Ziyod va Adiba" asari bilan boshlanadi", degan xulosaga keladi. Boshqa bir nechta manbalarda ham birinchi o'zbek she'riy romani ayni shu asar ekanini qayd etiladi. Ammo bu qanchalik to'g'ri?

Yuqorida ta'kidlaganimiz mumtoz adabiyotdagi dostonlarni hisobga olmasdan, zamonaviy adabiyotdagi she'riy romanlarga e'tibor qaratadigan

bo'lsak, ularning birinchisi jadid bobomiz Elbekning "Tozagul" asari ekanini oydinlashadi.

Adabiyotshunos Haydarali Uzoqov "Erk yo'lida erksiz ketgan fidoyi" maqolasida shunday yozadi: "...shoir o'ta kamtarlik qilib besh katta bo'lim, 215 sahifani o'z ichiga olgan 5 823 misralik "Tozagul" she'riy romanini "doston" deb ataydi. Asarni o'qir ekansiz, undagi Tozagul hamda Noryigitlar turmushi negizida sodir bo'lgan ijobiy va salbiy kayfiyatlar, qishloqdagi mashaqqatli mehnat, halol va pok urinishlar hamda ba'zi noxush ziddiyatlar she'riy tarzda hayotiy va badiiy takrorlanadi. "Tozagul"da qalamga olingan mavzuning keng qamrovligi va voqealar rivoji, qahramonlarning ko'lam darajasi, bizningcha, asarni doston emas, balki uni she'riy roman deyishga asos beradi".

Ushbu asar 1934-yilda yozilgan. Mirmuhsin qalamiga mansub "Ziyod va Adiba" esa 1954–1958-yillarda qog'ozga tushirilgan. Balki "Tozagul"ni shoirning o'zi poema deb e'lon qilgani uchun ham adabiyotshunoslar uni she'riy roman qatoriga kiritmas. Ammo asarni biroz tahlil qilib, undagi qahramonlar soni va voqealar tadrijini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, doston dan ko'ra qamrovi kengroq,



Elbek (1893–1939)

poemaga nisbatan kattaroq asar ekaniga guvoh bo'lamiz.

Asar voqealari Birinchi jahon urushi arafasidan 1933-yilgacha bo'lgan davrni aks ettiradi. O'sha paytdagi siyosiy vaziyatning real tasvirini ko'rsatishda bu she'riy romanning ahamiyati yuqori. Zero, o'zbek xalqining turmush tarzi, odamlarning orzu-havaslari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabat, "inqilob" deya ko'kka ko'tarilgan puch g'oyalarga qanday aldangani, sinfiy kurashning salbiy oqibatlari, ilg'or paxtakorlarning birinchi qurultoyi kabi dolzarb masalalar romanning asosiy obyekti sanaladi.

She'riy romanda bosh qahramonlar – Noryigit va Tozaguldan tashqari

yigirmaga yaqin katta-kichik obrazlar aks ettirilgan bo'lib, ularning taqdiri, qismati orqali XX asr boshlaridagi turmush haqiqatlari namoyon bo'ladi.

Roman sof badiiy asar sifatida kamchiliklardan xoli emas. Shoir o'sha davr siyosati, tuzumi ta'sirida sovet mafkurasi, sotsialistik revolyutsiya uchun kurashlarni aks ettirishga majbur bo'lgani, ayrim epizod va qahramonlarni majburan qo'shganini seziladi. Cho'lpon "Kecha va kunduz" romaniga rus kishisi obrazini kiritishga majbur bo'lgani kabi Elbek ham she'riy romaniga Mixail Ignatyevni qo'shadi. Go'yoki, Toshkentda yashaydigan bu shaxs Noryigitga yordam qo'lini cho'zib, uyidan joy beradi, ishga joylashtiradi, siyosatga tortadi. Ajablanarlisi, o'zi yaqindagina Toshkentga ko'chirib keltirilgan Mixail shaharga yondosh bo'lgan Chirchiq qishlog'i vakili Noryigitni mehmon sifatida qabul qiladi va uni ongli, isyonkor, faol kurashchiga aylantiradi. Shoir bu obrazni o'zi istab qo'shmagani tayin, ammo zamona zayli shu edi. Yo'qsa, roman orqali aytmoqchi bo'lgan asosiy fikrlarni ham bera olmas, asarni chop qilishning imkoni topilmasdi.

Noryigit va Tozagul dastlab sodda qishloq yoshlari sifatida tasvirlanib, asar davomida haqiqiy kurashchi, mehnatkash ishchi sifatida shakllana borishi, syujet liniyasining izchil rivojlanishi, ikki yoshning sevgi qissalari va visolga yetishishlari, epik asarga xos konflikt, tugun va yechimning berilishi asarning shu paytgacha yaratilgan she'riy romanlardan kam emasligini ko'rsatadi.

"Tozagul" she'riy romani o'z davrida kitob holda va qismlarga bo'lingan holda matbuot sahifalarida chop etilgan. Ammo bugungi o'quvchi bu she'riy roman bilan to'la tanisha olmaydi. Adibning 1999-yilda nashr qilingan "Tanlangan asarlar"ida boblar berilgan, xolos. Bu asarni ilk o'zbek she'riy romani sifatida qayta nashr etish va o'quvchilarga yetkazish adabiyotshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Zero, bu orqali mazkur janrdagi ilk asar tarixi 20 yil ortga surilib, ushbu yo'nalishda ham dastlabki tajribalar jadidlar tomonidan amalga oshirilgani borasidagi haqiqatlar yuzaga chiqadi.

Bekzod IBRAGIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

QISHLOQ KO'CHASIDAGI BOLALAR

(hikoya)



– Xayriyat-e, keldilaringmi? Sen o'zi doim kech qolasan!

– Nega endi men?

– Ha, sen, xohlamasang, uyingda o'tir.

Ayab o'tirish yo'q!

– Nima? Ayab o'tirish yo'q? Bu nima deganing?

Biz boshimiz bilan oqshom bag'riga sho'ng'idik. Na kunning, natunning farqi bor edi. Dam nimchalarimiz tugmalari bir-biriga tegib, tishdek g'ichirlar, dam barchamiz baravar masofada birga yugurib borar, tropik jonivorlarga o'xshab, og'zimizdan olov purkardik. Qadimgi urushlardagi kirasir kiygan otliq askarlar yanglig' bir-bir bosib, tag'in osmon-u zaminda, bir-birimizni turib-surib, torko'chadan quyi tushib kelar va oyoqlarimizdagi ana shu tezlik so'vib ulgurmay, yana qaytadan qishloq ko'chasi sari chiqib borardik. Shu ketishda ba'zi bir sheriklarimiz ko'chadagi chuqurlarga tushib ketar, ammo qoramtir do'nglik oldida ko'zdan g'oyib bo'ldi deguncha, yana yuqorida, dala yo'lida begona odamlardek paydo bo'lar va pastga termilib turishardi.

– Bu yoqqa tushsalaring-chi!

– Avval tepaga chiqib ollaring!

– Bizni yiqitmoqchisanlar deb o'yla-yotganimiz yo'q, kallamiz joyida.

– Shunchalik qo'rqqomiz, demoqchimisani. Qani, chiqa qolinglar unda!

– Rostdanmi? Sanlar-a? Bizni yiqitmoqchimisani? Ko'ramiz hali ahvol-laringni.

Biz hujumni boshladik, zumda oynadek silliq tepalik oldiga yetib borib, o'zimizni ko'chadagi o't-o'lanlar o'sib yotgan chuqurlar ustiga tashladik, kimdir nogoh

yiqildi, kimdir o'z ixtiyori bilan. Hamma narsa birdek qizigan, biz na issiqni, na o't-maysalardagi sovuqni sezardik, faqat charchaganimiz bilinardi, xolos.

O'ng tomonga xiyol yonboshlab, qo'lni quloq ostiga qo'ydim deguncha, odamni uyqu elita boshlaydi. Lekin boshingni ko'tarib, bor kuchingni to'plab, yana sakrab o'rningdan turishning, yanada chuqurroq o'ranga tushib ketishning kerak. Shundan so'ng, qo'lingni ko'ndalang tutib, oyoqlaringni yondama shamol yalab, havoga yuzma-yuz otilib chiqasan va albatta, yana boshqa chuqurroq xandaqqa yiqilib tushasan. Koshki edi shunisi oxirgisi bo'lsa.

So'nggi chuqurda bukik tizzalaringni, butun tanangni o'z holiga qo'yib, cho'zilib uxlab olging keladi, qayoqda, bu haqda o'ylab ham bo'lmaydi, aksincha, kasal odamga o'xshab chalqancha yotolib, yig'lavoray deysan. Mabodo tepalikdan bironta bola tirsaklarini beliga tirab, tovonlari qorayib tushib kelgudek bo'lsa, unga asta ko'z qisib qo'yasan.

Tepada Oy ko'rindi, chiroqlarini yoqvolgan pochta mashinasi o'tib ketdi.

Yengil shabada esdi, buni chuqurda yotib ham sezish mumkin edi, yaqin o'tda joylashgan o'rmon shovullay boshladi. Shunaqa paytlarda odamning ortiq yolg'iz qolgisi kelmay qoladi.

– Qayerdasanlar? Bu yoqqa kelinglar, hammang!

– Nimaga yashirib o'tiribsan, tur-e!

– Pochta allaqachon o'tib ketdi, bilma-dilaringmi?

– Yo'g'-e! Rostdanmi?

– Albatta, sen uxlayotgan paytda o'tib ketgan.

– Men uxladimmi? Bo'lmagan gap!

– Qo'ysang-chi, yuz-ko'zlaringdan bili-nib turibdi-ku.

– Sendan iltimos qilaman...

– Kela qolinglar endi!

Biz yonma-yon yugurishib ketdik, ba'zilar qo'l ushlashib oldi, boshimizni tik tutib bo'lmadik, chunki pastga qarab tushib borardik. Kimdir kutilmaganda hindularning jangovar chaqirig'ini hayqirib yubordi va biz endi otlarga o'xshab sakrab chop ketdik, har sakrashimizda shamol bellarimizdan quchib, madadkor bo'layotgandek tuyulardi. Bizni hech narsa to'xtata olmasdi; bir-birimizni quvib o'tayotganimizda qo'llarimizni qovushtirib, yon-atrofimizga ham birrov razm solib olardik.

Tentaksoy ko'prigi ustiga yetganda, hammamiz to'xtab qoldik; ilgarilab ketganlar ham qaytib kelishdi. Pastda suv tosh va ildizlarga urilib oqar, vaqt allamahol bo'lib qolgani ham sezilmasdi. Nega hozir birortamiz ko'prik panjarasidan suvga sakramayotganimiz ajablanarli hol edi.

Uzoqda, butazor va changalzorlar ortidan temiryo'l poyezdi yelib kelardi. Barcha kupelarning chiroqlari yoniq, deraza oynalari tushirib qo'yilgan edi. Shunda oramizdan bittasi nogoh ko'cha qo'shig'ini kuylay boshladi-yu, barchamizning ashula aytgimiz kelib qoldi. Biz poyezdga qaraganda ham tezroq kuylardik, qo'llarimizni silib ham qo'yardik, chunki ovozimiz yetishmay, bo'g'layotgandek tuyular, bu esa bizga yoqardi. Agar ovozing boshqalarniki bilan qo'shilib ketgudek bo'lsa, o'zingni go'yo qarmoqqa ilingandek his etarkansan.

Ortimizda o'rmon, o'lsilab borayotgan sayyohlar ketidan shunday kuylab qoldik. Bu paytda qishloqda kattalar haliyam uyg'oq, onalar esa bolalarini yotqizish uchun joy hohlashardi.

Vaqt bo'ldi. Men yonimdagi bolani o'pib qo'ydim-da, qolgan uchoviga shunchaki qo'l uzatdim va kelgan yo'lmdan orqaga chopib ketdim, ortimdan hech kim chaqirmadi. Birinchi muyulishga yetib borgach, meni endi ular ko'ra olmasdi, burildim va dala yo'llari bo'ylab o'rmon tomon yana yugurib ketdim. Men janubdagi shahar sari intildim. Bu shahar haqida qishloq'imizda shunday gap-so'z yurardi:

U yerda odamlar yashaydi! Bilasizlarmi, ular uxlamas emish!

– Nega endi uxlamas ekan?

– Chunki ular charchashmas ekan.

– Nega endi charchashmasakan?

– Chunki ular ahmoq ekan.


– Nima, ahmoqlar charchamaydimi?

– Ahmoqlar qanday charchasin, axir!

Nemis tilidan

Mirzaali AKBAROV tarjimasida.

BIRINCHI O'ZBEK SHE'RIY ROMANINI KIM YOZGAN?



“Kitobga dimog'dor o'qituvchiga qaragan qo'rqqoq o'quvchi singari emas, balki eng baland cho'qqini zabt etmoqqa shaylangan shiddatkor alpinist kabi yondashmoq talab etiladi.

Hermann HESSE

EHTIROM

Vahob Rahmon bilan meni bir-birimizga yaqinlashtirgan vositalardan biri atqoli shoir va mutafakkir, iste'dodli sarkarda, adolatli hukmdor Zahiriddin Muhammad Bobur va uning xotirasidir.

Har yili 14-fevral kuni hazratning hayoti va ijodiga bag'ishlangan xalqaro yo an'ana-viy yig'inlar viloyat hokimligi va Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan Andijonda tashkil etiladi. Mazkur ilmiy-adabiy anjumanlarda Vahob Rahmon ham Bobur ijodiy faoliyatining u yoki bu qirrasiga oid ma'ruzalari bilan faol qatnashardi. Fond raisi Zokirjon Mashrabov matnshunos, navoiyshunos olim Vahob Rahmonni fond-ning yaqin a'zosi, hamkori maqomida Bobur hayoti va ijodini o'rganish, targ'ib etish, uning nomini abadiylashtirish borasidagi boshqa joriy tadbirlarga ham chaqiradigan bo'ldi. Shundan buyon Vahob akaning bir oyog'i Andijonda. Biz endi u bilan Bobur fondida tez-tez uchrashadigan bo'lib qoldik.

Yillar davomida Vahob aka Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini bir necha bor nashrga tayyorladi. Bobur fondi buyurtmasiga ko'ra "Boburnoma"ning eski o'zbek lisonidan zamonaviy tilimizga tabdiliini amalga oshirdi (adabiyotshunos Karomat Mullaxo'jayeva bilan hamkorlikda) va bu kitoblarga so'zboshilar yozdi, izohlar bitdi. Boburning xolavachchasi, ko'p yillar Kashmirda hukmdorlik qilgan Xaydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy" memuar asarini forschadan o'zbekchaga o'g'irish (rafiqasi, ajoyib olima, tarjimon Yanglish Egamova bilan), "Bobur ensiklopediyasi"ni yaratish va nashrga tayyorlashdagi xizmatlarini adabiy jamoatchilik yuksak qadrlaydi.

Vahob akaga qoyil qolishim sabablarini ham aytib o'tishim kerak. U mahallarda aka Guliston shahrida yashar va Sirdaryo davlat universitetida ishlardi. Andijonga ko'pincha Toshkent orqali kelar va yana shu yo'nalish bilan Gulistonga qaytardi. Shunday qatnovlarini o'ylab, Vahob akaning hafsalasiga, sabr-toqatiga, matonatiga, fidoyiligiga tan berardim. Biror marta yo'lning aylanaligi, uzoqligidan nolgani, ko'p vaqti yo'lga ketib qolayotganidan zorlanganini bilmas, eshitmas edim. Zokirjon Mashrabov meni ham tez-tez Bobur fondining Bog'ishimol mavzeidagi idorasiga chaqirib turar, ayrim vaqtlarda o'z ishlarimdan qizg'anib yo shunchaki erinib (masofa 40 chaqirim atrofiga), vaj ko'rsata boshlasam, Zokirjon aka: "Gulistondan do'stingiz Vahob Rahmon kelgan, ko'rishib ketsam, yaxshi bo'lardi, deyapti" deya pisanda qilar, shunda men o'z qilg'imdan xijolat chekib, qolaversa, qadrii mehmon bilan diydorlashish, suhbatlashish ishtiyoqida darhol yo'lga tushardim.

Kaminani Vahob aka bilan jips bog'lagan omillardan yana biri – hamsafarlik. Inson mansabda va safarda sinaladi degan gap bor. Bu xulosaning bejiz emasligini, albatta, boshidan o'tkazganlar yaxshi bilishadi.

Bobur xalqaro jamoat fondi qoshidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiyaning navbatdagi (2011-yili) muhim yo'nalish va dasturi – Sohobqiron Amir Temur hayoti va hukmdorlik faoliyatining muayyan bir davrini – Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga qarshi yurishi asnosida bosib o'tgan sobiq Dashti Qipchoq va boshqa manzillarini, xususan, o'sha mashhur to'qnashuv sodir etilgan maskan hamda jang bilan bog'liq tarixiy hodisalar, tafsilot-larni o'rganishdan iborat edi. Ekspeditsiya rahbari Zokirjon Mashrabovda mazkur safar to'g'risidagi maqsad va rejaning paydo bo'lishiga ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan bir xabar sabab bo'lgan edi. Xabarda Rossiyaning Varna tumanida "Temur minorasi", "Ksene sag'anasi" degan atamalar bilan nom qozongan tarixiy yodgorlikning barpo etilishiga bois bo'lgan ma'shuqa qizning Amir Temur avlodi yo haramiga mansubligi aytilgan edi. Ushbu ma'lumot aslida tor doiradagi ilm ahli, muarrixlarga ma'lum bo'lsa-da, uni hamma bilavermas, boz ustiga, qadimshunoslar

Mehr-u ixlosimga bois...

ham mazkur dalilga nimagadir e'tibor qara-tishavermas edi.

Bobur Mirzo va uning sulolasiga oid har qanday yangilikni ko'ziga to'tiyodek suradigan Zokirjon Mashrabovni g'oyat qiziqtirib qo'ygan mazkur mujdani esa unga Vahob Rahmon yetkazgandi. Avvaliga fond raisi Vahob aka bilan samolyotda borib-kelishni ham chamaladi, lekin u odatda mo'ljalagan ishlari, rejaları durustroq salmoq va ahamiyat kasb etishi zarurligini inobatga olib, safarni avtomobilda amalga oshirishni lozim topdi.

Xullas, Zokirjon Mashrabov boshchiligid a O'zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti laureati Muhammad Ali, filologiya fanlari nomzodi, adabiyotshunos Vahob Rahmon va kaminadan iborat ekspeditsiya a'zolari yosh bo'lsa-da, tajribali haydovchi Ahmadjon boshqaruvidagi koreyslar "tulpori" Xunday-stareksda "Qaydasan, Varna?" deb, yo'lga tushdiki.

Internet xabarida aytilgan "Temur minorasi"ni topdik. U tuman markazidan chetroqda – bepoyon kengliklar og'ushida, Novopakrovsk yo'lidan yuz qadamcha ichkariroqda salobat bilan qad ko'tarib turardi. Vahob aka yodgorlikni sharhlab, u bilan bog'liq voqea-hodisalar o'sha davrda yashagan o'zbek shoiri Sayfi Saroyining "Suxayl va Guldursun" dostonida qanday tasvirlangan haqida o'ziga xos hayajonli ohangda batafsil gapirib berdi.

Varna o'lkashunoslik muzeyida moziyogoh xodimlari bilan "Temur minorasi" yuzasidan savollarimizga javob olishga, mazkur

jumboqli, munozarali vaziyatdan ishonchli misollar, dalillar bilan qoqilmay, tutilmay, g'olibona chiqa olardi. Bunday holatlarda men ich-ichimdan faxr va qoniqish tuyar, Vahob akaning ekspeditsiyaga qo'shilgani ayni muddao bo'lgan ekan degan gap ko'nglimdan qayta-qayta o'tardi.

Samara viloyatida Sohobqiron bilan To'xta-mishxon o'rtasida bo'lib o'tgan va Turon mamlakati sultoni g'alabasi bilan yakunlangan muhoraba bo'lgan joylarni o'rganib, o'sha janglar bilan bog'liq va boshqa tarixiy dalil, hodisalarni muhokama qilar ekanmiz, Vahob akaning jonajon mamlakatimiz – O'zbekiston tarixini ham teran bilishi meni lol qoldirardi. Har qanday suhbat-muzokalarimiz esa o'z-o'zidan adabiyot mavzusiga borib tutashar va beixtiyor mushoiraga kirishib ketganimizni ham payqamay qoldirik.

Vahob Rahmonni men iste'dodli, o'z fikrini dadil va dangal ayta oladigan adabiyotshu-nos olim deb bilardim, uning she'r yozishi, durustgina shoirligidan mutlaqo bexabar ekanman. Hajman ancha yirik falsafiy-lirik she'ri ham, jarangdor ovoz bilan ifodali o'qishi ham o'ziga jalb etgulik edi.

Vahob Rahmonga bo'lgan hurmatim, ixlo-simning oshishiga bois bo'lgan uchinchi omil – uning mumtoz adabiyotimiz, ayniq-sa, Alisher Navoiy asarlari nashrlaridagi imloviy, grammatik sahv-u xatolar borasi-dagi kuyunishlari, jonkuyarligidir. Ma'lumki, daho, mutafakkir shoirimiz satrlari qatrlariga jo etilgan tagma'nolarni ilg'ab olish oson



Rossiyaning Varna tumanidagi "Temur minorasi" yoki "Ksene sag'anasi" degan atamalar bilan nom qozongan tarixiy yodgorlik.

yodgorlik to'g'risidagi "mish-mish"lar va tarixiy haqiqatlarga oydinlik kiritishga harakat qildik. Tatariston markazida esa Qozon universiteti tarixchi va filologlari bilan o'zbek-tatar adabiy aloqalari mavzusida bafurja muloqot-munozara o'tkazdik. Yana, bu suhbatda "Boburnoma"ning 1957-yili turkolog olim I.M. Ilminskiy tomonidan dastlab shu yerda kitobat qilingani va bu nashr asarning London nusxasi bilan birga O'zbekistonda chop etilgan nashrlarga asos bo'lganiga alohida urg'u berildi.

Yuqoridagi uchrashuvlar, muloqot-muno-zaralarda Vahob Rahmon o'zbek klassik shoir-yozuvchilari bilan bir qatorda qozoq, rus, tatar adabiyotlarini ham chuqur bilishiga imonim komil bo'ldi. Sanalgan xalqlarning qaysi namoyandasi ijodi haqida so'z ketsa yo bir savol tug'lsa, Vahob aka boshqalar bilan barobar, balki ulardan ko'proq ma'lumotga egaligini baralla namoyon etar, har qanday

emas. Qolaversa, she'riyat sultoni asarlarida arab, fors va boshqa chet so'zlar nihoyatda ko'p qo'llanishi natijasida ularni uqish, tushunish muammosi yanada og'irlashadi. Shuncha qiyinchilik va muammo ustiga turli sabablarga ko'ra so'zlarning qo'lyozmalardan va kitoblardan, arab imlosidan kirill harfiga ko'chirish jarayonlarida yo'l qo'yilgan xatolarga nisbatan (ular shu qadar ko'p), qo'polroq bo'lsa ham dard ustiga chipqon, "xol qo'yish" iboralarini qo'llash mumkin. Vahob aka Navoiy asarlarining 10, 20 jildliklarining har bir kitobida minglab xato va yanglish so'zlar bor desa, dastlabki paytlarda mubolag'a qilyaptiyov deb o'ylardim. Bunday xatoliklar borasidagi Vahob Rahmon tuzatishlari va sharhlarining, u kishining ta'бири bilan aytganda "bomba" maqolachalarining bir nechtasini kamina bosh muharrirlar qilgan "Xolis" ijtimoiy-ommabop gazetida ham e'lon qilgan edik. Keyinroq

Vahob akaning "Mumtoz so'z sehri" kitobida keltirilgan, tuzatish-o'nglashga sabab bo'lgan xatoliklarga, buning oqibatida kelib chiqadigan yanglish satrlar, fikrlar, obrazlarga guvoh bo'lgach, to'g'risi, yuragim shuvullab ketdi. Nahotki biz, umuman, kitobxonlar, ixlosmandlar Navoiy g'azallari-yu dostonlarini shu alpozda o'qiyotgan, o'rganayotgan bo'lsak, degan taajjub va taassuf, demak, mazkur asarlarni yaxshi tushunmasligimiz sabablaridan biri ana shu "xol"lar bilan ham bog'liq ekan-da, degan achinish xayolimdan ketmay qo'ydi. Mana, bir misol:

**Ey Navoiy, gar vafosiz chiqdi
ul Sulton Husayn,
Topping eldinkim,
tilarsen emdi sultondin vafu?!**

"O'sha bayt mazmuniga boqsak, muallif shoir Husayn Boyqaroni ochiqchasiga vafosiz deb haqorat qilmoqda, – deya kuyunib yozadi Vahob Rahmon. – Bunga nima deysiz? Bu usul Alisher Navoiy ruhini qaqshatish emasmi? Holbuki, shoir yozgan edi:

**Ey Navoiy, gar vafosiz
chiqti ul sultoni husn,
Topping eldinkim,
tilarsen emdi sultondin vafu?"**

(*"Mumtoz so'z sehri", 110-11-b*)
Darhaqiqat, Navoiydek betakror, zukko shoir, oqil, donishmand inson o'zining umrlik do'sti-qadrdoni, boz ustiga, uni yuksak mansab-martabalar va boshqa g'amxo'rliklar bilan siylab yurgan, ijodi va nomini hamisha izzat-ikromda tutgan yurt podshohi sha'niga shunday ta'na, ayblov bitishi mumkinmidi? Eng achinarlisi, mazkur buzuq bayt va boshqa xatolar ikki asrdan beri kitobdan kitobga, barcha oliy, o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari-yu maktab o'quvchilari uchun mo'l'jallangan darsliklar, qo'llanmalarda ham biridan ikkinchisiga o'tib kelayotgan ekan.


Ehtimol, bu "xol qo'yish"larda faqat matn-shunoslarninggina emas, boshqa mas'ul shaxslar – noshir, muharrir, musahhihlarning ham "hissasi" bordir, ammo qay birini oqlab bo'ladi va kim aybdor, kim zahmatkashligining asliyatdan mutlaqo bexabar bechora kitobxonga qanday ahamiyati bor? Balki, ko'hna imloning zer-u nuqtalari olimlarga, tadqiqotchilarga ko'p pand bergandir, zahmat-u tashvishlar keltirgandir, ammo sho'ring qurg'ur o'qiguvchida nima gunoh?

Navoiy asarlari asliyatidagi, aytaylik, "eng" (yonoq) so'zini "yeng" (kiyinning yengi), "ma'man" (maskan)ni "ma'ni" (ma'no), "oytti" (aytti)ni "oyati", "babr"...ni "bir", "yog'ib"...ni "yo g'ayb", "hamul"...ni "ham ul", "mehr"...ni "hajr", "bir Bilol"...ni "pur hilol" (va hokazo) tarzida, mazmuni butunlay teskari qilib ko'chirilgan besanoq xatolarni o'qigach, bechora Vahob akaning quyidagi faryodi sababi, ma'nisini anglaganday bo'ldim. U bir jurnalistning "Vahob aka, siz tajribali matnshunosiz. Matnlarni ayovsiz tanqid qilasiz... Nahotki ular shunchalik tanqidga loyiq bo'lsa?" degan savoliga javoban shunday degan ekan:

"...Nashrga tayyorlovchilar matn mazmunini idrok etolmasalar, matnni eski yozuvdan buzib ko'chirsalar, har bir kitobda yuzlab xatolar uchrasa, men dod demay, kim dod desin?!" (*Yuqoridagi kitob, 110-b.*)

Ha, bu "dod" ulug' ajdodlarimiz ijodining kitobxonlarga, xalqqa aslidagiday, benuqson yetkazish, ularda noto'g'ri tushuncha va tasavvur yuzaga kelmasligi uchun sidqidildan qayg'urgan, kurashgan fidoyi olimning far-yodidir.

Albatta, mumtoz adabiyotimiz namunalarini yaxshi niyatlar bilan, katta zahmatlar ila



nashrga tayyorlashdek juda mas'uliyatli, xayrli vazifani ado etganlarga minnatdorlik bildirish va ular sha'niga tahsinlar aytishga burchimiz. Zero, besh-olti asr ilgari bitilgan katta hajmdagi, balki ayrimlari bir qadar eskirgan qo'lyozmalarni o'qish, so'zma-so'z o'zga imloga ko'chirish serdiqqat, mashaqqatli yumush ekanligini, bunday serko'lam va murakkab ishlarda ancha-muncha xatolar, anglashilmovchiliklar, kamchiliklar bo'lishi tabiiyligini yaxshi ang-laymiz, lekin gap shundaki, xatolar "ancha-muncha" degan qolipdan oshib-toshib ket-gan va fikri ojizimizcha, Vahob Rahmon tuzatishlari ana shu ishlarga sifat, mukammallik bag'ishlashi nuqtayi nazaridan baholanishi maqsadga muvofiq edi.

Illo, anglashimizcha, hazrat Navoiy ruhi-dan, kitobxonlar ommasidan uzr so'rash o'rni-ga, tuzatguvchiga, o'nglovchiga, asliyatni tiklovchiga rahmat aytish, tashakkur-u min-natdorlik bildirish o'rni-ga, ba'zilar undan ranjiydi, xuddi arpasini xom o'rib qo'ygandek, unga yovqarash qiladi, tag'in, hech xijolat chekmay, "bu (biz nashrga tayyorlaganlarimiz) – bizning Navoiyimiz, u (siz tuzatgan variantdagi) – sizning Navoiyigingiz", deyishdan ham tap tortmaydilar (Axir, Vahob aka yozganidagi, rost-dan ham olimning xatosi – olamning xatosi-ku!) Bu pichingli munosabatlarga esa, nazdimda, Vahob aka yuzlaridan deyarli arimaydigan mayin tabassumi bilan javob qaytaradi.

Ammo o'zga holatlardagidan farqlanuvchi ushbu jilmayish zamirida, shubhasiz, andak quvlik bilan birga, achinish hissi ham yo'q emasligini ola qarovchilarning o'zlari ham juda yaxshi anglasalar kerak. Ehtimolki, Vahob Rahmon o'z uslubidan kelib chiqib, tanqidiy fikrlarini "xushxo'rroq" qilish uchun istehzo qalampiridan bir-ikki chimdim ziyodroq qo'shib yuborar, lekin haqiqat shuki, uning tuzatishlari, niyati muhim va o'ta zarur – mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ijodini ixlosmand-kitobxonlarga mumkin qadar bexato yetkazish, hazrat Navoiy ruhiga esa ozor yetkazmaslikdir.

So'zni muxtasar qilsak, Vahob akaning kamtarlik, kichikko'ngillik, odamoxunlik, yaqinlariga sadoqat, oliyanoblik kabi insoniy sifat-lari, kaminaga yo'llagan maktublaridagi do'stona mehr tuyg'ulari meni bu fidoyi navoiyshunos, boburshunos va matnshunos olimga oshno etgan, hurmatimni ziyoda qilgan omillarning a'lolaridandir. Ushbu bitikni ham Vahob akaning menga yozgan nomalari-dan biridagi, keyingi paytlarda o'ta muhim va og'riqli masalaga aylangan mavzuga oid quyidagi gaplari bilan yakunlasam:

"Olamda odamni ilm kabi ulug'laydigan bebaho kashfiyot bo'lmaydi. Buni keng ma'noda ijod desak, balki to'g'riroq bo'lar. Kitob insonga baxt uchun kerakligini, ulug' baxt uchun zarurat ekanligini insoniyat balki tushunib yetolmas. Tushunib yetganlari esa bir umr baxt sohibi bo'ladilar. Kitobxon odam, menimcha, hamisha baxtiyordir.

Kitob o'qimaydigan odam yorug' olamda ko'zi so'qir kimsa kabi zimistonda yashaydi. Holbuki, ko'zi ochig'larining ko'ngil ko'zlari ochiqdir. Chunki kitob o'qimaydigan odam so'qirdan tibanroq turadi. Ularga Allohning rahmi kelmagani shu – kitob o'qimaslikdir. Chunki Navoiy "Alloh odamni ma'rifat uchun, ya'ni o'qish uchun yaratdi" deganlar. Ma'rifat yaratish esa eng oliy baxtdir".

**Qamchibek KENJA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
yoshlar murabbiysi**

YOD ETIB



Ko'rdim bu olamda turfa qiyofat,
Ko'rdim bu hayotda har son bo'rini.
Sizni uchratguncha va lekin faqat
Ko'rmagandim sizdek Luqmon Bo'rini...

Mansur JUMAYEV

ANGLASH IZTIROBI

Erka inson edi Luqmon Bo'rixon. Qadrini bilar, izzatini joyiga qo'yumagan yerga qadam bosmasdi. Ba'zida kekkeygan, ba'zida xoksor, xullas, o'z dunyosi bilan yashayotgan o'spiringa o'xshab ketardi. Hamisha ojizlarni himoya etar, zaiflarning tarafida turar, hatto futbolida ham, ataylab kuchsiz bir jamoaga muxlislik qilardi. O'zini puxta deb ishonar, lekin sodda, go'dakdayin to'g'ri edi. Shunga boshqalarni ham o'ziday ko'rardi.

Adiblarning yozgani o'ziga o'xshashi bor gap. Ammo asarlari Luqmon Bo'rixonchalik o'ziga tortgan yozuvchini, kamina, ko'rmaganman. Dilgirlingi mo'l edi asarlariga o'xshab. O'rni kelganda hazilni, har xil kinoyalarni ham joyiga qo'yardi. Ahyon-

ahyon bo'lib qoladigan ginalari, koyinishlari ham beg'araz edi. Nolirdi-yu, har bitta gapni Xudoning qarshisida turganday qo'xmasdan, chatmasdan chippa-chin gapirardi. "So'z samimiyatni yaxshi ko'radi", derdi menga doimo. Tag'in bot-bot uqtirardi: "qizlarning ko'nglini olishga o'xshagan nayranglarni qo'y, qaytanga oshnang bilan tillashganday ro'y-rost, dangal yozsang, jumalarning o'zi eshilib kelaberadi... Bilib qo'y, adabiyot sening mahbubang emas, oshnang!"

Yana bitta yutug'i va kamchiligi bor edi u kishining. Yozgan hamma asarlarini bolasini yaxshi ko'rganday yaxshi ko'rardi. Bolasini erkalganday papalardi. Yo'q deysizmi, tirikchilik uchun yozilgan asar-lar – boshqalardayam tiqilib yotibdi. Bundayroq yozilganlari ham bor hammad.

Lekin Luqmon Bo'rixonning o'zgalaridan farqi, o'shanday asarlarini ko'zdan panaga surmasdi. Aksincha, o'zi yaxshi yozilmagan deb ich-ichdan tan oladigan asarlarini ham doimo xurjunida olib yurardi. Bir gal shu haqida gapirganimda, "og'ayni, sen aytgan asarlarniyam kampil shimib yozganim yo'q, tirsagimning yag'iri chiqib yozganman!" degan. Jon bor edi gaplarida. Bu odam hamma asarini yonboshlab olib, qo'lda yozar, yoqmagan joyini qayta-qayta tahrir qilishdan hech erinmasdi. Shu tufayli Najot G'aybulla haqida, Lolaxon yo Norsoat haqida so'rab qolsangiz, birdan o'sha yozayotgan paytidagi zavqi, hayajonlari qaytib kelardi. Qahramonlarning har bitta gapi, har bir holatigacha kitobdagi bilan "birga bir" tarzda gapirib bera olardi. Hatto hali yozishga ulgurmagan asarlarini ham

boshdan oxirigacha aytib berishga qodir edi bu inson. Tasavvuri shunchalar keng, misli bir mexanizm edi. Ongida o'nlab asarlarning to'la-to'kis g'oyasi hil-hil pishib yotardi.

Men tirikligida tanish bo'lganimizdan, yaqin bo'lganimizni aytib maqtangu-luk shunday odamim borligidan juda xur-sandman. Sog'inishga, qo'xmsashga arzigulik bir bebaho inson bilan uzun-uzun suhbatlar qurganimizdan juda mamnunman. Nomardga mag'lub damlarimda "esiz, ustoz ketib qoldi-da, bo'lmasa meni himoya qilardi!", deb o'z-o'zinga taskin beradigan kishim borligidan baxtiyorman... Va har bitta odamning hayotida mana shunday inson bo'lishi zarur, deb bilaman. Indamaydigan, narigi dunyolarda jim turib seni eshitadigan, o'z-o'zingga hisob berishingga, to'kilib tozarishingga, ko'ngling kirlari, g'uborlarini yuvib olishingga qo'yib beradigan bir yaqini bo'lishi shart deb o'ylayman har bandaning...

Bayram ALI



TANDIRDA TOBLANGAN TOR

Boshlanishi 1-sahifada.

Sotuvchi yigit turli yaltiroq nimarsalar qistirilgan bir torni ko'rsatib, "Bunisi eng qimmat turadi – bahosiga yarasha qiymati bor. Barmog'ingiz tegmasdan jaranglaydi", deb ta'riflay ketdi. Sotuvchi maqtagan torni qo'limga olib, u yoq-bu yog'ini ko'rgandek bo'lib savol bilan yuzlandim: "Bu tor tandir tagida necha yil toblangan?"

Sotuvchi savolimdan ajablandi. Sezdimki, bu yigitning haqiqiy tor qanday tayyorlanishidan mutlaqo xabari yo'q.

Bundan o'ttiz yillar muqaddam ulug' hofiz Komiljon Otaniyozovning xonadoniga borganimda u kishining turmush o'rtog'i Imsinoy opa Polvonova qiziq voqeani so'zlab bergan edi: "Komiljon akaning vafotidan o'n yillar o'tgach, u kishining shogirdlari o'zaro musobaqa uyushtirishdi. G'olib chiqqan kishi ustozning torini bosh sovrin sifatida olishiga kelishildi. Men ham e'tiroz bildirmadim: olsa shogirdlari oladi, qolaversa, torlari necha yillardan beri xonasida devorga osilig'lik turibdi-ku, degan fikrga bordim.

Musobaqa g'olibi torni olib ketgan kuni tunda Komiljon aka tushimga kirdi. Kayfiyatsiz bir holatda turibdi. Men so'rashmoqchi bo'lsam, u kishi "Tor qani?" dedi, xolos. Uyg'onib ketdim...

Shu kuniyoq o'sha shogirdini uyiga bordim va ko'rgan tushimni aytib, torni olib qaytdim. Komiljon aka bu torni meni yaxshi ko'rgan darajada yaxshi ko'rardi".

Imsinoy ayaning yaxshigina nazmiy iqtidori bor edi – yagona she'riy to'plamini umri nihoyasida chop etishga jazm qilganlar. Ayadan "Yoshlik paytingizda she'r yozgan ekansiz-u, ammo nega birorta she'ringizni Komiljon aka qo'shiq qilmagan?" deb so'raganman. Aya kulgan: "Akangizning didi baland edi. Qo'shiq uchun she'r-g'azalni chertib-chertib tanlardi. Menga o'xshagan havaskor shoirlar u kishiga yaqin kelishga ham cho'chirdi".

Hofizning yuz yilligi Prezidentimiz tashabbusi bilan keng nishonlandi, yashagan uyi muzeyga aylantirildi. O'sha mashhur tor hozirda hofizning uy-muzeyini bezab turibdi.

Komiljon aka ardoqlagan bu torning qanday sehri bor dersiz? Judayam bor! Bor bo'lganda ham mo'jiza mahsuli u.

Ma'lumki, tor yurtimizga ozarbayjon qar-doshlarimizdan kirib kelgan va dastlab Buxoroda qo'llanila boshlangan. Bu soz-ni Xorazmga keltirilishi va voha qo'shiq-chiligining ajralmas qismiga aylanishi-da Komiljon akaning xizmatlari beqiyos. Hech bir istisnosiz aytish mumkinki, torni Komiljon aka kabi maromiga yetkazib sayratgan boshqa hofizni topish qiyin. Tor uning qo'lida o'zgacha jaranglagan, mumtoz

ashulalarimizning tinglovchilarga to'la-to'kis yetib borishida, qo'shiq matnidagi har bir so'z va hatto, lofi bilan aytisak, vergul-u nuqtasi qaydaligini anglashlari, qalblariga misli obi hayot kabi quyilishi va yurak pardalarini ko'pirtirib yuborishgacha borib yetgan. Hofiz kuylayotgan daqiqalarida minglab qo'shiqsevarlarning sel bo'lib o'tirishi, egilgan boshlarini ohista tebratishlari sababi sohir tovushdan tashqari tordan chiqayotgan sehrli ohanglar hamdir.

Bu sehrli ohang o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu mo'jaz cholg'u – torning zuvalasi juda mustahkam pishitilgani natijasi!

Xorazmda besh yuz yilcha yashaydigan Balx tuti ko'p o'sadi. Umrboqiylikda gujum

Shundan keyingina maromiga yetib "pishgan" daraxt tanasidan tor yasaladi.

Tasavvur qilyapsizmi, bir tor yaralishi uchun hunarmandning kamida o'n yil umri o'tadi. O'sha o'n yil toblatish torga ming yillik umr bag'ishlaydi va usta sabr-toqati uchun munosib taqdirlanadi ham. Bu usulda yasalgan torning narxi juda yuqori turadi.

Torning dastasi ham tut va o'rikdan yasaladi. Ulug' shoir, rahmatli Matnazar og'a o'g'iz lahjasida yozgan she'rilaridan birida tor yasali-shini shunday ta'riflagan:

*Tutning shoxosinnon dutor dastasi,
Tutning yo'pog'innon dutor torlari.
Shoxo bilan yo'rpog' qo'shilishg'ondo
Bag'ringini azadi chakkan zorlari.*



Komiljon Otaniyozov uy-muzeyi.

bilan bellashadigan tutni "temir daraxt" deb ham ataydilar. Bejiz emas. Tut tanasiga urilgan boltaning tig'i sinishi mumkin. Unga eng o'tkir uchli mixni ham qoqish qiyin.

Torning ohang taratadigan, jarangdorlik paydo qiladigan qismi – kosasi tut yoki o'rikdan yasaladi. Yasaladi, deb aytdik-qo'ydik, aslida bu ko'p yillar davom etadigan jarayon.

Tor yasaydigan hunarmand usta ko'p yillik tut yoki o'rik daraxtining sog'lom qismini kesib olib, po'stlog'ini archimasdan suv to'la hovuzga tashlab qo'yadi. Bu daraxt tanasida mavjud ozroq havo chiqib ketishi uchun qilinadi. Po'stlog'i archilmagan daraxt tanasiga toblanish vaqtida yoriq tushmaydi.

Og'och hovuzga bir necha yil tashlab qo'yiladi. So'ng hovuzdan olinib yerga ko'miladi va ustiga yertandir quriladi. Tandirda kamida yetti yil non yopiladi.

*Shoxo boltalonor dasta vo'lmoqa,
Yo'rpog'lar qurta yem tor bo'lamiz dab.
Nadagan azob-la chakdik san bilan
Ikkimiz o'luncha yor bo'lmiz dab.*


Hozirda Xorazmning ko'pchilik xonadonlarida devorga osig'liq turgan torga ko'zingiz tushishi mumkin (Bizning xonadonda bir emas, uchta tor bor). Ammo bu torlarning aksariyati bir vaqtlari qaysidir musiqa cholg'ulari tayyorlaydigan fabrikada konveyer usulida ishlab chiqarilgan. Aynan ishlab chiqarilgan, yasalgan emas. Bugun konsert zallarida kuylayotgan hofizlar yoki oynayi jahonda har kuni ko'zimiz tushadigan qo'shiqlar kliplarida xonandalar qo'lidagi torlarning nechtasi "tandir tagida toblangan", degan savolga javob olish mushkul. Hatto hofizlar torlarini maqtashda bir-biridan o'zishadi ham. Boshqalarnikidan farqlanishi uchun tor dastasiga tillo suvi yuritganlari, simlariga zarhal tus berganlari qancha.

Tashkilotda bu qarorni qabul qilgan barcha insonlarga minnatdorlik bildirmoqchiman", deya "Truth Social" ijtimoiy tarmog'ida post qoldirdi u.

"Reuters" agentligi xabar berishicha, AQSh bozori uchun mashhur gazlangan ichimlikni tayyorlashda tarkibida fruktoza miqdori yuqori bo'lgan makkajo'xori siropidan foydalaniladi. Shu bilan birga, ayrim boshqa mamlakatlarda kompaniya ichimliklarga qamish shakari qo'shadi.

KESILGAN DARAXT UCHUN 4 YILLIK QAMOQ

Angliyaning shimoliy qismida mashhur chinor daraxtini kesib tashlagan ikki erkak to'rt yil-u uch oydan qamoq jazosiga hukm qilindi.



"PA Media" axborot agentligi tarqatgan xabarga ko'ra, 39 yoshli Daniel Grem va 32 yoshli Adam Karruters may oyida daraxtning o'ziga va u qulab tushgan Adrian devoriga yetkazilgan ziyon bo'yicha ikkita jinoyatda aybdor deb topildi. Aybdorlarga seshanba kuni Angliyaning shimoli-sharqidagi Nyukasl Qirolik sudida hukm o'qildi.

Mazkur daraxt Rim imperiyasi tomonidan qurilgan Adrian devorida 200 yildan ortiq vaqt davomida qad rostlab turgan edi. 2023-yil sentyabrda esa u "ataylab kesib tashlandi". O'sha paytdagi rasmiylar bu harakatni "vandalizm" deb baholashgan.

To'g'ri, xorazmlik hunarmandlar orasida buyurtma asosida tor yasaydigan ustalar haliyam bor. Ular mahorat bilan yasagan torlar fabrika (yoki sex)larda ishlab chiqarilgan cholg'ulardan sifati, jarangdorligi, ko'rinishi, umrboqiyligi borasida bir necha karra ustun turadi, ammo...

Bir gal mashhur hofiz Otajon Xudoyshukurovdan qo'lidagi torning narxini so'raganimda u kishi qisqa javob qilgan: "Buning bahosi o'zim minib yurgan "Jiguli"dan qimmatroq".

O'sha vaqtlari "Jiguli" degan match o'n ming dollar atrofida turardi. Demak, Otajon og'aning qo'shiqchilik san'atida yuksak maqomga ko'tarilishida o'zining ulkan iste'dodi bilan bir qatorda "tandir ko'rgan tor"ining ham o'rni beqiyos bo'lgan.

Vohaning dilbar adibi, shoir, dramaturg va tarixchi, rahmatli Komil Avaz san'atga oshno inson edi. U kishi torda mumtoz musiqalarni maromiga yetkazib ijro qilar, yaxshigina ovozi ham bor edi. San'atga ixlosi o'laroq uzoq yillar Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatriga rahbarlik qilgan.

Komil og'a tandirda toblangan torning yasali-shi haqida shunday guruh bergan edi: "Tor – ajib musiqiy asbob. Uning kuy yaratadigan qismi, ya'ni chanog'i inson boshiga va unga tutash yurakka o'xshaydi. Bosh chanog'i deymiz-ku, axir! Tandir tagida yetti yil toblangan tudtan o'sha chanoq kattaligidagi qismi kesib olinadi va uning ichi g'ovak shaklida o'yiladi. Xorazmda yog'och o'ymakorligi ko'p qadim ildizlarga ega. Yog'och o'ymakorlar yasagan jilvakor ustunlar, darvoza qoblari asrlarki Xiva obidalarini bezab turibdi. Ammo torning chanog'ini yasashga yog'och o'ymakorlar ishlatadigan uskunalar ojizlik qiladi. Haykaltarosh tosh, marmardan haykal yasaganida o'tkir cho'kichdan foydalanadi. Torning bosh chanog'i ichini g'ovak holatga keltirishda ham aynan o'tkir cho'kich ishga solingan. Tasavvur qilyapsizmi, tut yoki o'rikning qattiqiligini? Rahmatli otam Samandar buva xivalik tor yasovchi bir ustaning chanoq ichini o'rganini ko'rganini aytib berardi. "Qarab o'tiribman, usta cho'kich bilan yog'ochga har urganida go'yo toshdan chiqqanidek uchqunlar chiqadi". Buni biz hozirda lof deb bilamiz. Aslida shunday bo'lgan. Aynan tosh misol qattiq chanoq ustiga tortilgan sigir yoki ho'kizning yurak pardasi sehrli, mo'jizakor ohanglar chiqara olgan".

Xorazmda surnay chalish bo'yicha maktab yaratgan ustoz san'atkor, ikkinchi darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibi Yo'ldosh surnay Tojiyev mo'jaz tor yasash borasida qiziq fikr bildirdi: "Torning kosasi (uni ba'zan "torning qorni" ham deyishadi) va dastasini mevali daraxtdan yasash rusm bo'lgan. Bo'lmasa vohada tanasi qattiqlikda



tut yoki o'rik bilan bellashadigan qoramon yoki gujum daraxtlari ham bor. Bunda ham ramziylik aks etgan: mevali daraxtdan yasalgan tor uni qo'lga ushlagan hofizga umri davomida ko'plab "mevalar" beradi – qo'shiqlar yaratadi-da!"

Dunyo musiqa tarixida italiyalik Stradivari yasagan skripkalar juda mashhur sanaladi. Har biri noyob osori-atiqaga aylangan bu skripkalarining narxi bir necha million AQSh dollariga baholanadi. O'sha cholg'ularni Stradivari aynan bizdagi ustalar kabi yillar davomida toblab, har birini san'at asari darajasiga yetkazib yaratgan. Ha, aynan yaratgan!

Zamonaviy texnologiyalar rivoj topgan hozirgi davrda ustomon ishbilarmonlar ahli "vaqtni qaritish"ning hadisini olishgan. Har qanday buyum, tabiiy o'simlikni kimyoviy unsurlar yordamida daqiqalar ichida "yoshartirib" yuboriladi. Stradivari kabi bir skripka yasashga necha yil umrini zoye qilib o'tirishmaydi. Ammo ular qadimgi ustalar o'n yillab umrini sarflab, sabr-toqat bilan yaratgan tor va boshqa musiqa cholg'ularidan taraladigan ohang, yaraladigan betakror musiqa totini bera olmaydi.

Komiljon akaning o'sha mashhur tori kim-oshdi savdosiga qo'yilisa qanchaga sotiladi, deb o'ylaysiz? Kamida yetti raqamli sonlarda ifodaladigan narxga chiqadi, so'zsiz! So'mda emas, albatta!


Mumtoz san'atimiz ildizlari qanday oziqlanganini anglagandirsiz?

Ro'zimboy HASAN

JAHON AYVONIDA

SURIYAGA HUJUM

Isroil harbiylari chorshanba kuni Suriya mudofaa vazirligining Damashqdagi binosi kirish qismiga zarba berilganini ma'lum qildi.



Biroz o'tib, Isroilning yana bir zarbasi yo'llandi – bu safargi zarba Suriya poytaxtidagi prezidentlik saroyi yaqiniga kelib tushgan. Isroil rahbariyati shu tariqa mamlakatdagi ozchilik hisoblangan druzlarni hukumat qo'shinlari hujumlaridan himoya qilishga urinayotganini iddao qilgan. Suriya sog'liqni saqlash vazirligi Damashq o'qqa tutilishi oqibatida bir kishi halok bo'lib, yana 18 kishi jarohatlanganini xabar berdi.

"Reuters" agentligi Isroil mudofaa vazirligidagi manbaga asoslanib, Damashqdagi binoga kamida ikkita zarbdor dron uchib kelgani va suriyalik zobitlar yerto'laga yashirinishiga to'g'ri kelganini aytgan.

Saudiyaning "Elekhbariya" davlat telekanali xabariga ko'ra, Isroil zarbasi oqibatida mahalliy aholi vakillaridan ikki kishi yaralangan.

NAVBATDAGI CHEKLOV

Rossiyada migrantlarga chet elga pul yuborishda cheklov joriy etilishi mumkin. Bu haqda "Gazeta.ru" xabar berdi.



Davlat Dumasi migrantlarning rasmiy daromadidan ziyod mablag'ni xorijga o'tkazishni taqiqlovchi qonun tayyorlashini taklif qilgan.

Bu orqali noqonuniy daromadlarni "oqlash", soliqlardan qochish va kapitalni mamlakatdan chiqarib ketishning oldi olinishi ko'zda tutilmoqda.

COCA-COLA TARKIBI O'ZGARADI

Coca-Cola kompaniyasi AQSh bozori uchun o'z ichimliklarini ishlab chiqarishda makkajo'xori siropini emas, balki tabiiy qamish shakaridan foydalanishga o'tishga qaror qildi. Bu haqda prezident Donald Trump xabar berdi:



"Men kompaniya bilan AQShda Coca-Cola tarkibida haqiqiy qamish shakaridan foydalanishni boshlash bo'yicha muzokaralar olib bordim va ular bunga rozi bo'lishdi.

100 YOSHGACHA PREZIDENT BO'LMOQCHI

Kamerunning 92 yoshli prezidenti Pol Biya qariyb 43 yil davomida Markaziy Afrika davlatini qattiq nazorat ostida boshqarib kelgan bo'lib, deyarli 100 yoshga to'lgunga qadar hokimiyat tepasida qolishi mumkin bo'lgan qayta saylanish kampaniyasini boshladi. Bu haqda "CNN" xabar berdi.



"Hali qiladigan ishlarimiz ko'p", dedi yettinchi muddatining so'nggi davrida turgan Biya. "Eng yaxshisi hali oldinda", deya qo'shimcha qildi Kamerun rahbari o'z bayonotida.

Biya sog'lig'i yomonlashgani haqidagi xabarlariga qaramay, oktyabr oyida bo'lib o'tadigan prezidentlik saylovlarida yana yetti yillik muddatga saylanmoqchi. Uning aytishicha, hokimiyatni yana davom ettirish qaroriga "mamlakatning 10 ta hududidan va chet eldagi vatandoshlardan kelayotgan shoshilinch murojaatlar" sabab bo'lgan.

Ushbu bayonot uning kasal bo'lgani yoki vafot etgani haqidagi mish-mishlardan bir necha oy o'tgach e'lon qilindi.

Keyinchalik OAVda uning sog'lig'i haqida gapirish taqiqlandi, Kamerun ichki ishlar vazirligi buni milliy xavfsizlik masalasi deb e'lon qildi.



VAZIR ISTE'FOSI

Kuba mehnat va ijtimoiy ta'minot vaziri Marta Elena Feyto Kabrera mamlakatda tilanchilar yo'q, faqat o'zini shunday ko'rsatayotgan odamlar bor, degan fikri uchun iste'foga chiqdi.

Kuba prezidenti ma'muriyatining ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilgan xabarida Feyto "siyosiy va davlat boshqaruvi markazida turgan masalalarga yondashishda xolislik va sezgirlik yetishmagani" sababli "o'z xatolarini tan olganini va iste'foga chiqishni so'raganini" ma'lum qildi.

Bu xabar Feyto Milliy Assambleya qo'mi-tasida deputatlarga oroldagi qashshoqlik haqida fikr bildirganidan bir kun o'tib e'lon qilindi.

"Biz ko'chada odamlarni ko'rdik, ular tilanchilarga o'xshaydi, lekin ularning qo'l-lariga va kiyimlariga e'tibor bersangiz, ular shunchaki tilanchiga o'xshab kiyingan, xolos. Ular aslida tilanchi emas", dedi Feyto.

Feyto chiqindi to'planadigan joylarni titkilayotganlarga ham tanqidiy munosabat bildirib, ularni "qayta sotish va soliq to'lamaslik uchun" materiallarni yig'ishda aybladi.

Bu fikrlar juda tez tarqaldi. Oqibatda og'ir iqtisodiy sharoitni boshdan kechirayotgan mamlakatda keng miqyosdagi norozilik va tanqidlar to'linini keltirib chiqardi.



AYBIN BILMAY KETGAN

FUZAYL SHERAHMEDOV

Boshlanishi 1-sahifada.

O'sha yili Najmiddin Sherahmedov ikki ukasi – Nasriddin va Fuzayl hamda singlisi Saidani Germaniyaga o'qishga yuboradi. Bir oiladan uch nafar farzandning bir vaqtda chet elda tahsil olishi Sherahmedovlar xonadonida ta'limga, ilm-u ma'rifatga jiddiy yondashilganini ko'rsatadi. Shu tariqa, qahramonimiz Toshkentda shakllantirilgan 16 kishilik guruh bilan birga Berlinga yetib boradi.

Nasriddin, Fuzayl, Saida va ularning hamshirasi Zuhra Kashayeva alohida xonadonga joylashib, xususiy muallimlardan nemis tilini o'rganadi. Shundan so'ng Fuzayl Sherahmedov Germaniyaning Shtreylits shahridagi oliy texnika maktabining yo'l muhandisligi fakultetiga o'qishga kiradi. 1926-yili yozgi ta'tilda Vatanga keladi, biroq unga Germaniyaga qaytib ketishi uchun ruxsat berilmaydi.

Fuzayl va Saidani iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yo'llari ham to'siladi. Vaholanki, O'zbekistonning birinchi rahbarlaridan bo'lgan Akmal Ikromov Fuzaylning tog'asi edi. Najmiddin Sherahmedov Munavvar qori Abdurashidxonov orqali Afg'oniston konsulkonasi xodimi G'ulom Jayloniy bilan bog'lanib, undan Saidaga 50 so'm va xat yuboradi. Najmiddin singlisiga *"Mamlakatda to'liq despotizm, o'zbeklarda umuman hokimiyat qolmadi. Sovetlar hammani qo'rqitib oldi"*, deb yozgan edi.

Fuzayl Sherahmedov talabalik yillarida Shtreylitsdan tashqari Berlin, Haydelberg shaharlarida amaliyot o'tab, Yevropaning zamonaviy arxitekturasini, ilmiy va texnik yutuqlari bilan yaqindan tanishadi. 1929-yil oliy ma'lumot haqidagi diplomni qo'lga kiritgach, Toshkentga qaytib keladi.

Fuzayl Germaniyada o'rttirgan bor ilmtajribasini O'zbekistonda yo'l qurilishi sohasini rivojlantirish yo'lida ishga soldi. U Toshkent, Farg'ona, Qo'qon va boshqa



Suratda: chap tarafda Ubaydulla Xo'jayev, o'ngda Olimjon Idrisiy, o'rtada Sherahmadboy uyida xizmatda bo'lgan tatar qizlar, oldinda o'tirganlar Nasriddin, Saodatxonim va Fuzayl Sherahmedovlar.

shaharlardagi yo'l qurilishi idoralarida bosh muhandis bo'lib ishladi.

1937-yil 10-sentyabrda O'sh asosiy yo'li qurilish idorasi bo'lim boshlig'i Fuzayl Sherahmedov O'zSSR JKning 60, 67-moddalari bilan ayblanadi va Germaniya josusi sifatida qamoqqa olish haqida qaror chiqariladi. 1937-yil 13-sentyabr kuni u Toshkent shahri, Zirabuloq ko'chasi, 42-uyda hibsga olinadi. Mushtipar onasi Ruksora Ikromova, turmush o'rtog'i Sharifa Sherahmedova, 2 yoshli Naimaxon va 5 oylik Favziyaxon ismli farzandlari uning ortidan qon yig'lab qoladi.

1937-yil 22-sentyabr kuni ilk so'roqda Fuzayl Sherahmedov o'ziga josus va aksilingilobchi sifatida qo'yilgan ayblovlarini butkul rad etadi. Biroq o'ta vahshiyona qiynoqlardan so'ng (27, 29 sentyabr kunlari) qo'lga tutilgan barcha qog'ozlarni imzolashga majbur bo'ladi. Qizig'i, 1937-yil sentyabr sanasi bilan allaqachon mashinkada tayyorlangan qarorga keyinchalik Mixaylyants tomonidan alohida ruchka bilan "20" raqami tirkab qo'yilgan. Bu esa Fuzayl Sherahmedovga nisbatan haqiqiy qaror ancha avval, butunlay boshqa odamlar tomonidan chiqarilganligini anglatadi.

1937-yil 20-oktyabr kuni so'roq yakunida Fuzayl Sherahmedov tergov bayonnomasiga "Barcha aksilingilobiy faoliyatimni aytdim, mening boshqa gapim yo'q! Qo'shimcha qilmayman!" deb imzo chekadi. Shundan so'ng uni ancha vaqt bezovta qilishmaydi.

1938-yil 23-sentyabrda u Shtrelitsda birga o'qigan Omonulla Nasratulla bilan, 1938-yil 29-sentyabrda Sattor Jabbor bilan, 1938-yil 3-oktyabrda Sulton Matqul bilan yuzlashtiriladi. Yuzlashtirish qattiq

ruhiy bosim va jismoniy qiynoqlar ostida olib boriladi. Ammo Fuzayl biror marta o'zining aybdorligini tan olmaydi. 1937-yil 5-oktyabrda Fuzayl Sherahmedov ishiga oid ayblov bayonnomasini sobiq Ittifoq general prokurori Vishinskiy nomidan uning yordamchisi imzolaydi. Hujjatda F.Sherahmedovga nisbatan "U 1926-yil Tohir Shokir tomonidan "Ozod Turkiston" aksilingilobiy tashkilotiga tortilgan, 1932-yil Abduvahob Murodiyning turmush o'rtog'i Marta orqali, 1933–1935-yillari esa Sattor Jabbor orqali Gestapoga josuslik maqsadida materiallar yuborib turgan", degan bo'htonlar bitilgan edi.

1938-yil 9-oktyabr kuni bo'lib o'tgan mash'um "uchlik" yig'ini Fuzayl Sherahmedovni aybdor deb topib, uni oliy jazoga hukm qildi. O'zbekistonga ne-ne ezgu orzu va umidlar bilan qaytib kelgan qahramonimiz aslida 8-oktyabrda otib tashlangan edi.

O'sha paytda Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 45-uyda yashagan Fuzayl Sherahmedovning onasi Ruksora Ikromova o'g'lining ishini qayta ko'rishlarini so'rab avval SSSR general prokurori, so'ng O'zSSR prokurori nomiga arizalar yo'llaydi. Nihoyat, boshqa qatag'on qurbonlari qatori Fuzayl Sherahmedovning ishi ham qayta ko'riladigan bo'ladi.

1957-yil 25-avgustda so'roqqa chaqirilgan Ruksora Ikromova: *"Mening yetti farzandim bo'lib, o'g'illarim Ismoil, Fuzayl, qizlarim Zarifa, Sharifa, Marhima, Hakima, Ruhima edi. Bugun Zarifa va Sharifadan boshqa barchalari dunyodan o'tib ketgan. Chet eldagi Said Sherahmedova turmush o'rtog'im Isroil Sherahmedovning akasi Hojahmad Sherahmedovning qizi bo'ladi. Hozirda bizning Said bilan umuman aloqamiz yo'q"*, deydi.

Fuzayl Sherahmedov 1958-yil 27-martda SSSR Oliy sudi tomonidan oqlandi. Biroq bu kunlarga uning ikki qizi yetib kelmadi. Ular go'dakligida onalari bilan uysiz sarson-sargardon yurgan vaqtlaridayoq kasallikka chalinib vafot etgan edi...

Fuzayl Sherahmedovning aybsizligini tan olishdi, ammo undan tortib olingan mol-mulklar qaytarilmadi. Fuzaylning hamon uysiz yurgan bevasi Sharifa Sherahmedova 1971-yil 13-oktyabrda uy so'rab hukumatga murojaat etadi. Ammo uy olish nasib etmay, omonatini topshiradi.

Bahrom IRZAYEV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi.)

Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Kamol Shermatov – 1896-yili tug'ilgan. "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi bo'lgan. 1932-yili "quloq"qa tortilgan. Aksilingilobiy harakatda ayblanib, 1937-yil 26-noyabrda hibsga olinadi. Qamoqqa olingunga qadar Kirov nomidagi kolxoz raisi o'rinqosari bo'lib ishlagan edi. Tergov davomida unga turli bo'hton va soxta ayblovlar tirkashadi. Oqibatda O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi "uchlik" qaroriga binoan mol-mulki musodara etilib, o'zi esa otuvga hukm etiladi... Oradan yillar o'tib, ya'ni 1956-yil 29-sentyabrda Kamol Shermatov reabilitatsiya qilingan.

Hamid hoji Ashurmatov – 1894-yili Farg'ona shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi. 1937-yil 26-avgustda hibsga olingan. 1937-yil 27-noyabrda O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi "uchlik" tomonidan o'n yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Hibsga olingunga qadar Malyak tayyorlov punktida mudir bo'lib xizmat qilgan. Andijon oblast sudining 1956-yil 29-sentyabrda qarori bilan Hamid hoji Ashurmatov reabilitatsiya qilingan.

Latip Maxsum Qoziyev – 1883-yili Andijon shahrida tavallud topgan. "Sho'royi Islom" hamda "Milliy ittihad" aksilingilobiy tashkilotlarining a'zosi bo'lgan. 1937-yil 3-avgustda hibsga olingan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi "Uchlik" 1937-yil 27-noyabrda uni o'n yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qiladi. Jazo muddati 1937-yildan boshlab hisoblangan. U 1956-yil 29-sentyabrda reabilitatsiya qilingan.

To'yichi Aminov – 1881-yili Andijon shahrida dunyoga kelgan. Parpi qo'rboshining boshchilik harakatida faol sarkor va ellikboshi bo'lgan. Shuningdek, u "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi ham edi. 1937-yil 21-noyabrda uni hibsga olishib, otuvga hukm etishadi.

SSSR prokuraturasi 1989-yil 6-iyunda muqaddam "uchlik" tomonidan chiqarilgan hukmni asossiz deb topadi va To'yichi Aminovni reabilitatsiya qiladi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi


(Davomi kelgusi sonda).

YANGI NASHR

"Matbuot tarixi – uyg'onish davri tarixining bir bo'lagidir", deb yozgan edi atqoli jadid bobomiz Hoji Muin. Shu vaqtgacha "Bizning uzoq va boy tarixga ega jurnalistikamiz bor", deya bot-bot takrorlab kelindi. Ammo bu meros asosan tor doiraga tanish bo'lib, uning haqiqiy ko'lamini ko'rsatib beradigan, omma ko'z oldida gavdalantiradigan loyihaga qo'l urilmagandi.

Prezidentimizning "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohada tub bulirish yasadi. Aynan ushbu tarixiy hujjatda "O'zbek jurnalistikasi antologiyasi" kitobini nashrga tayyorlash, buning uchun zarur mablag' ajratish masalasi belgilandi. Natijada, milliy jurnalistikamizning shonli tarixini ko'rsatuvchi "oyina" yaratildi. Xo'sh, bu oyina o'zida nimalarni aks ettiradi?

Yaqinda nashrdan chiqqan ikki jildli "O'zbek jurnalistikasi antologiyasi" quyidagi bo'limlardan iborat: "Qadimgi davr jurnalistikasidan lavhalar", "Milliy jurnalistika shakllanishi va takomilining asosi



(o'rta asrlar)", "Jadid jurnalistikasi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)", "Ikkinchi jahon urushi davri jurnalistikasi", "Turg'unlik davri jurnalistikasi: murakkab siyosiy jarayon va matbuotdagi evrilishlar", "Qayta qurish va oshkoralik davri jurnalistikasi", "Mustaqillik davri o'zbek matbuoti", "O'zbekiston fotojurnalistikasidan lavhalar", "Mustaqillik yillari televideniyesi va radiosi", "O'zbekiston internet jurnalistikasi".

Majmua miloddan avvalgi V–IV asrdan to bugungi kungacha bo'lgan



ikki yarim ming yillik davr davomida yaratilgan jurnalistik materiallarni o'z ichiga oladi.

185 nafar muallifning 200 dan ortiq ijod mahsulini to'plash va nashrga tayyorlashda Halim Saidov, Akbar Nurmatov, Karim Bahriyev, Nazira Toshpo'latova, Nurboy Jabborov hamda yana o'n nafar fidoyi olim va jurnalist jonbozlik ko'rsatgan. Ijodiy guruhga O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov rahbarlik qilgan. Shuningdek, tahrir hay'atida

Abdusaid Ko'chimov, Ahmadjon Meliboyev, Xurshid Do'stmuhammad kabi katta ustozlarning borligi antologiyaning nechog'lik ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

Har ikkala jild "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlanib, ming nusxadan, sifatli holda chop etilgan.

Ushbu xayrli va mas'uliyatli ish Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi shukhi kezib yurgan kunlarda amalga oshirilgani ham bejiz emas. "O'zbek milliy matbuotining boshlanish davri jadidlik harakati bilan chambarchas bog'liqdir", deb yozadi professor Halim Saidov "Jadid jurnalistikasi" bo'limiga kirish qismida. Jadid matbuotini esa Munavvar qori va Ismoil Obidiyning "Taraqqiy" gazetasi, Behbudiyning "Oyina" jurnali va boshqa nashrlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Jurnalistikamiz tarixini "Millatni kim isloh etar?" (Ibrat), "Ta'rix va jug'rofiya" (Behbudiy), "Bizni jaholat – jahli murakkab" (Munavvar qori), "Kim nimani yaxshi ko'radi?" (Avloniy), "Biz kim va nimalardan qo'rqamiz?" (Qodiriy) kabi bebaho maqolalarsiz yozishning

iloji bormikan?! Turli manbalarda sochilib yotgan ana shunday dolzarb materiallar bir muqova ostiga jamlangani bilan antologiya qadri va qimmatlidir. Xalq deydi, marjon go'zal, ipga tizza yanada go'zal.

Hamkasb sifatida "Jadid"chilarni quvontirgan jihat ham bor: tahririyatimizning Adabiyot va san'at bo'limi mudiri Gulchehra Umarovanning maqolasi ham antologiyadan joy olgan. Havas qildik... Ammo boshqalar "ro'yxatlarda yo'q edi nomim" deya xafa bo'lishga, "ijodimiz o'zbek jurnalistikasi tarixidan joy olishga nomunosib ekan-da", degan o'y'larga berilishga oshiqmasinlar. Chunki kitob so'zboshisida ta'kidlanishicha, bu boradagi ishlar davom ettirilib, antologiyaning III va IV jildlarini ham nashrga tayyorlash va chop ettirish rejalashtirilgan. Demak, kamchiliklar o'rni to'ldirilib, I–II jildlarga kirmay qolgan fidoyi jurnalistlarning sara ijod namunalari, ularning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar o'rin oladigan yangi kitoblarda dunyoga keladi.

Otabek BAKIROV



IJODXONA

SUKUNATDA “SO‘ZLAYDIGAN” SAN’AT

San’atning turlari ko‘p. Insonning ular orasidan o‘ziga keraklisini topib olishi ham bir san’at. Mening haykaltaroshlik yo‘nalishida ijod qilishim bevosita rassomlik, rang-tasvir bilan bog‘liq. Har bir haykal muayyan bir tarix, dunyoqarash va ruhiyat haqida so‘zlovchi badiiy hujjatdir. Ko‘pchilik, ayniqsa sayyohlar haykallar poyida suratga tushishni, ularning mahobati oldida zavq va hayrat tuyishni xush ko‘radi. Bu tabiiy, chunki haykallar insonni o‘ziga ohanrabodek tortib turadigan madaniy qutb nuqtalariga aylangan. Biroq barcha ham ana shu haykal yaratilishi zamiridagi ijodiy mashhaqqat, izlanish va hatto yillab davom etgan badiiy kurashlar haqida o‘ylab ko‘rmaydi. G‘oyat murakkab, keng qamrovli soha bu.

MADANIY QUTB NUQTALARI

Haykal – sukut ichra so‘zlaydigan timsol, juda katta fikr, hissiyot va mehnat yashiringan obraz. Har qanday haykal uni yasagan san’atkorning dunyoqarashi, hayot haqidagi o‘ylari, hatto tajribalari bilan bog‘liq ma’lumotlarni ham o‘zida aks ettiradi. Garchi u bir odam yoki bir jamoa mehnati bilan yaratilsa-da, butun jamiyat nomidan “gapirishi” mumkin.

Tarixdan ma’lum, sezarlar, fir’avnlr, imperatorlarning haykallari nafaqat san’at asari, balki o‘ziga xos targ‘ibot vositasi vazifasini ham bajargan. Odamlar bunday haykallar vositasida davlatning kuchini, hukmdorning ulug‘vorligini, ayrim hollarda, hatto ilohiylikni ham his qilishgan.

Haykaltaroshlik shunchaki tosh yoki metalga ishlov berish bilan chegaralanmaydi. U insoniyat sivilizatsiyasining shakl orqali ifodalangan tarixidir. Haykaltaroshlik tarixining aniq boshlanish davri noma’lum, lekin aytishlaricha, u tosh davriga borib taqaladi. Eng qadimgi haykalsimon timsollar sifatida Berekhat Ram Venerasi va Tan-Tan Venerasi deb ataluvchi ikki tosh obyekt tilga olinadi. Ularda inson tomonidan shakl berishga urinish borligi kuzatiladi, bu esa badiiy anglashuvning ilk bosqichlaridan dalolat beradi.

Haykallar orqali tarixiy shaxslarni eslatib turish, yosh avlodga ular haqida gapirish juda muhim. Menimcha, bugungi kunda yoshlarning ko‘pchiligi san’atga qiziqadi, lekin haykaltaroshlikni tanlashga kelganda biroq cho‘chiydi. Chunki bu sohada nafaqat bilim, balki o‘z ustida uzoq yillik izlanish, his qilish qobiliyatini rivojlantirish kerak bo‘ladi. Haykaltaroshlik o‘rganiladigan hunar emas, o‘zlashtiriladigan tafakkur turidir. Bu sohaga kirishish uchun faqatgina ko‘nikmaning o‘zi yetarli bo‘lmaydi, insonning dunyoqarashi, hissiy idroki va intilishi ham birdek muhim. Shakl yasashni o‘rgatish mumkin, lekin obraz yaratish qobiliyati tajriba, mulohaza va hayotni kuzatish orqali shakllanadi. Shu bois, haykaltaroshlik ijodkorning shaxs sifatida yetilishiga xizmat qiluvchi jarayon hamdir.

OBRAZ QANDAY YARALADI?

Haykaltaroshlikka jiddiy yondashish uchun tasviriy san’at va inson anatomiyasini yaxshi bilish shart. Ammo shuning o‘zi bilan cheklanib ham bo‘lmaydi. Chunki obraz nafaqat shakl,



Iqtidorli yosh haykaltarosh va rassom Artur RAJABOV Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutini tamomlagan. Shu kunga qadar respublika miqyosidagi ko‘plab tanlovlarda qatnashib, ularning yettitasida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

balki ma’no orqali ham “gapiradi”. Shuning uchun haykaltaroshning shakllanishida badiiy adabiyotning o‘rnini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Chunki adabiyot san’atkorga inson tafakkuri, uning tuyg‘usi va ichki ziddiyatlarini tushunishda yordam beradi, ko‘nglidagi kechinma va tuyg‘ularni shaklga aylantirishiga yo‘l ochadi. Axir, badiiy obraz ma’naviy mazmunga ham ega bo‘lishi kerak-da.

Bu sohada arxitektura ham muhim. Negaki, haykal joysiz, muhitsu mavjud bo‘lmaydi. San’atkor, avvalo, shakl va atrof-muhit o‘rtasidagi



muvozanatni anglashi kerak bo‘ladi. Ba’zida haykalning o‘zidan ham ko‘ra, uni qanday joyga, qaysi burchakka qo‘yish muhimroq vazifaga aylanadi.

Qolaversa, har qanday haykal bevosita o‘tmish bilan aloqadorlikda yaratiladi. Shuning uchun tarixiy bilim zarur. Haykal yodgorlikka aylanishi uchun u shaxs, davr, g‘oya bilan bog‘liq bo‘lishi shart. Men ish boshlashdan avval kim haqida asar yaratyapman, u qaysi muhitda yashagan, jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatgan, degan bir qator muhim savollarga javob topish uchun ancha-muncha ma’lumotlarni o‘rganaman. Bu esa bo‘ljak obrazga qanday mazmun yuklashimni belgilab beradi.

Ko‘p hollarda san’at muxlislari “obraz qanday yaraladi?” deb qiziqishadi. Javobim oddiy:

kuzatuvdan. Deylik, teatr va kinodan ko‘p narsa olaman. Bu ikki soha, ayniqsa teatrni nazariy va amaliy kuzatish maydoni sifatida qabul qilaman. Harakatlardan va hatto, sukutdan ham nimadir o‘rganaman. Chunki haykal o‘z-o‘zicha “tilga kirmaydi”, sukutda so‘zlaydi. O‘sha jilmikka ma’no-mazmun bag‘ishlash eng qiyin vazifa sanaladi.

MUHIT BILAN UYG‘UNLIK

Haykaltaroshlik uzoq asrlik an’ana va tajribalarga ega bo‘lgan murakkab san’at turidir. Turli mamlakatlarda turli haykaltaroshlik maktablari shakllangan. Har birida shakl, kompozitsiya, material bilan ishlash uslubi va g‘oyaviy qarashlar o‘zgacha.

Shaxsan men o‘z ijodimda o‘zbek haykaltaroshlik maktabiga tayanaman. Xususan, taniqli haykaltarosh, rahmatli Ravshan Mirtotiyev asarlari orqali o‘zimga yo‘l topganman, nimani qanday ko‘rish va qanday his etish kerakligini u kishining asarlaridan anglaganman. To‘g‘ri, bu san’atkor bilan shaxsan uchrashish menga nasib etmadi, biroq aynan u kishining shogirdi Jasvand Annazarov o‘n yildan buyon menga ustozlik qilib kelmoqda.

Ayni paytda ijod jarayoniga yanada to‘liqroq, tizimli yondashishni o‘rganyapman. Masalan, ustozim ta’kidlaganidek, haykaltaroshlik ishlarini shartli ravishda uch yo‘nalishga bo‘lish mumkin. Birinchisi – davlat buyurtmalari. Bu yerda tarixiy aniqlik, jamoatchilik uchun birday tushunarli bo‘lgan obrazga alohida urg‘u qaratiladi. Ikkinchisi – shaxsiy ijod. Bunda erkinlik ko‘proq, yangi yechimlar, ekspressiv yondashuvlar uchun imkoniyat keng. Uchinchisi – ommaviy kompozitsiyalar. Bu turdagi haykallar odatda, bog‘lar, maydonlar, istirohat maskanlari kabi jamoat joylarida o‘rnatiladi. Shuning uchun ham ular ko‘rimli bo‘lishi, atrof-muhit bilan uyg‘unlashib, odamlarga kuchli ta’sir o‘tkazishi, shu bilan birga g‘oyaviy yuklamasi ko‘p bo‘lmasligi, oson qabul qilinishi kerak.

Mahobatli haykallarining o‘zi alohida mavzu. Bunday haykalga hech qachon atrof-muhitdan ayro qaralmaydi. U qayerda joylashishi, maydonning o‘lchami, atrofidagi binolar, hatto odamlar qaysi tomondan kelib, qanday burchakdan ko‘rishi mumkinligigacha hisobga olinadi. Bordi-yu, may-

don tor bo‘lsa, haykal “siqilib” qoladi. Aksincha, maydon katta, haykal kichik bo‘lsa, u ko‘rinmay qolishi mumkin. Xullas, yodgorlik bilan muhit bir-biriga xalaqit qilmasligi, aksincha, bir-birini to‘ldirishi zarur.

“SAN’ATIMIZNI DUNYOGA KENGROQ TANITAYLIK”

Oxirgi ikki yilda haykaltaroshlik sohasida ham texnologiyalar ta’siri yaqqol sezilyapti. Ilgarilari haykalning dastlabki eskizlarini tayyorlash, g‘oyani shaklga tushirish uchun soatlab, kunlab, ba’zan haftalab vaqt sarflardik. Hozir esa raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va 3D modelashtirish dasturlari bu jarayonni ancha tezlashtirgan. Ilgari qo‘lda chiziladigan detallar, maketlar endi kompyuterda qisqa muddatda tayyorlanyapti.

Buning vaqt tejashdan tashqari bir qator afzalliklari bor: eskiz tayyorlash jarayonida variantlar ko‘payadi; vizual tahlil osonlashadi;



material qanday ko‘rinishda chiqishi, nur qaysi tomondan tushishi – barchasini oldindan ko‘rish mumkin. Masalan, “ZBrush”, “Blender”, “Maya” kabi dasturlar orqali bir g‘oyani turli uslublarda reallashtirib, ularni taqqoslash imkoni bor. Bu, albatta, ijodiy jarayonni yanada samarali qiladi.

Eslayman, talabalik paytlarimda ma’lumot to‘plash uchun kutubxonalarda kunlab o‘tirardik, ba’zi kerakli kitoblarni oylab kutgan paytlarimiz bo‘lgan. Hozirgi kunda tengdoshlarim, yosh haykaltaroshlar internetda kerakli ma’lumotlarni zumda topish, suratlar, hujjatlar va hatto tarixiy shaxslarning 3D rekonstruksiyaalarini ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega. Bu juda katta qulaylik.

Biroq texnologiya bir vosita, xolos. Har qanday zamonaviy dastur ham g‘oya bo‘lsagina ishlaydi. Sizda fikr bo‘lmasa, texnikaning o‘zi ijod qilmaydi. Kompyuter shaklini yasab beradi, ammo shakl ortidagi ma’noni qalban his qilish hamisha insonning o‘zida qoladi.

Haykal – so‘zsiz muloqot vositasi, unda tuyg‘u, xotira, falsafa mujassam. Men milliy haykaltaroshlik san’atimizni dunyoga kengroq tanitishni o‘zim uchun eng muhim masalalardan biri deb hisoblayman. Biz mazmundor, ma’naviy yuksak san’at asarlari orqali O‘zbekistonning madaniy salohiyatini jahonga kengroq tanitish yo‘lida tinimsiz izlanishimiz kerak.

Vasila HABIBULLAYEVA
yoziq oldi.

TARMOQLARDA NIMA GAP?



OSHGAMI, ISHGAMI?

“Agar o‘zbeklar boshqa ishlarga ham oshga kelgandek birlashib yig‘ila olganlarida edi, dunyoda bundan qudratli millat bo‘lmas edi”.

Alixonto‘ra Sog‘uniyning bu gapini ilk bor o‘qiganimda, hayron bo‘lgandim: nega aynan osh? Nega boshqa bir o‘xshatish emas?

Ammo bu so‘zlarning naqadar chuqur ma’no anglatishini hayotimda o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.

Bir mahalladoshimizning nahorgi oshiga bordik. Tonggi soat oldida boshlanadigan oshga biz besh yarimda yetib borganmiz. Ammo to‘yxonada deyarli bo‘sh joy qolmagan edi. Kelganlarning 95 foizi – o‘zimizning mahalla ahli. Bir-biriga mehribon, e’tibori va ahil odamlarni ko‘rib, oqibatimizga ko‘z tegmasin, deb qo‘ydim.

Ammo... aynan shu kuni, oqshom soat beshda mahallada umumiy yig‘ilish bo‘lishi kerak edi. Muhokama qilinadigan asosiy mavzu: uch milliard so‘mlik muammo

yechimi. Ming afsuski, o‘sha yig‘ilishga bor-yo‘gi 30 nafar odam keldi...

Oshga borilmasin, demayman. Lekin shunday og‘izburchilikni, uyushqoqlikni jamiyat uchun dolzarb bo‘lgan masalalar muhokamasida ham ko‘rishni istayman.

Osh yesak, 3-4 soat ichida yana qornimiz ochadi. Ammo bir muammoni birga hal qilsak, u butun mahalla uchun, farzandlarimiz uchun foyda keltiradi-ku!

Bugun bormiz, ertaga – yo‘q. Bugun bizning ovoqimiz, fikrimiz muhim ekan, unumli foydalanaylik. Ertaga chiqarilgan qarorlarga e’tiroz bildirgandan ko‘ra, bugun o‘z qarashimiz bilan ishning siljishiga hissa qo‘shaylik.

Maqsadimiz aniq: yurt tinchligi, odamlar roziligi, o‘g‘il-qizlarimiz kamoli. Keling, xayrli ishlarda ham xuddi oshdagidek birlashib, harakat qilaylik!

Zohidjon G‘AFFOROV,
Ohangaron tumani
“Ilg‘or” mahallasi raisi

Telegram

TANLOV

“VATAN UCHUN YASHAYLIK!”



O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Vatanimiz mustaqilligining
34 yilligiga bag‘ishlab eng
yaxshi nasriy, she’riy va badiiy
publitsistik asarlarning an’anaviy
“VATAN UCHUN YASHAYLIK!”
Respublika tanlovini
e’lon qiladi.

Tanlovga **2024-yilning 10-avgustidan 2025-yilning 10-avgustiga qadar** respublikamizdagi vaqtli matbuot va adabiy nashrlarda e’lon qilingan yoki kitob holida chop etilgan badiiy-publitsistik maqolalar, ocherklar, nasriy va she’riy yo‘nalishdagi asarlar taqdim etilishi mumkin. Ularda **“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”** degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan, xalqimizning milliy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ichki va tashqi siyosat borasidagi tub o‘zgarishlar, inson qadri oliy mezon bo‘lgan yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo‘lida qo‘lga kiritilgan zafarlar, mard va matonatli xalqimizning fidokorona mehnati, aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyati, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish va keng targ‘ib qilish, Vatanimizning milliy istiqloqli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan ota-bobolarimizning ibratli

hayoti, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyati targ‘iboti kabi ezig‘u g‘oyalar hayotiy misollar, teran fikr-mulohazalar bilan tarannum etilishi lozim.

Tanlov ishtirokchilari o‘z ijodiy ishlarini **(pasport yoki ID-karta nusxasi, manzil va bog‘lanish telefon raqamlarini ilova qilgan holda)** Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, Adiblar xiyoboni, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi binosi manziliga yuborishlari kerak.

Yuborilgan ijodiy ishlar **2025-yilning 15-avgustiga** qadar qabul qilinadi hamda tanlov hay’ati tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Tanlov g‘oliblari O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 34 yilligi bayrami arafasida diplom hamda pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Qo‘shimcha ma’lumot olish uchun telefon:
(71) 231-83-67.

TANLOVGA MARHAMAT,
AZIZ IJODKORLARI!

Jadid
adabiy, dunyoqarash va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVİYAT
VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO‘LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do‘stbekov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 19 175
Shundan:

Kirill yozuvida – 7 497
Lotin yozuvida – 11 678
Media kuzatuvchilar – 78 635
Buyurtma: G – 740.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:30
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz